

TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI



O'QUV USLUBIY
MAJMUA

TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIV-METODIK
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

STATISTIKA

YO'NALISHI

**«AGROBIZNES STATISTIKASI»
moduli bo'yicha**

O'QUV USLUBIY MAJMUA

Toshkent 2022

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "7" dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: TDIU dotsenti Mamatkulov B.X.

Taqrizchilar: Raimbaev A., Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti,
Ph.d.
Abduraupov R., Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti,
PhD.

Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 25 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. Ishchi dastur	4
II. Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari.....	10
III. Nazariy materiallar.....	16
IV. Amaliy mashg‘ulot materiallari	41
V. Keyslar banki	45
VI. Mustaqil ta’lim mavzulari.....	80
VII. Glossariy	82
VIII. Adabiyotlar ro‘yxati	89

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi **“2022 — 2026 YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA”** gi PF-60-SON farmonining 46-maqсадida “Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish” bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilab qo‘yildi:

1. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022 yilda oshirish.
2. 2022 yilda yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish.
3. To‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta’lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish.
4. 2026 yilda qabul ko‘rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish.
5. Davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to‘lash, xodimlar soni, to‘lov-kontrakt miqdori va ta’lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo‘lga qo‘yish.
6. Davlat oliy ta’lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Agrar tarmoqda fermerlik harakatini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, paxta va g‘alla yetishtirishni klaster shakliga bosqichma-bosqich o‘tkazish bo‘yicha izlanishlarimizni davom ettiramiz.

Meva-sabzavot, sholichilik, chorvachilik, ipakchilik kabi boshqa tarmoqlarda ham bugungi kun talabiga javob beradigan klasterlarni tashkil etish ishlarini davom ettiramiz.

Bu yil 2 milliard dollarlik, keyingi 5-7 yilda esa 3-4 barobar ko‘p meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish uchun mahsulot yetishtirishni keskin ko‘paytirish choralari ko‘rish zarur”¹.

Dastur 2017 yil 23 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur mazmuni oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg‘or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //”Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 25 январь, № 19 (7521)

Internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta‘lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, bu orqali oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta‘lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish, chet tillarini intensiv o‘zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini, ilmiy faoliyatini muntazam yuksaltirish, oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishni tizimli tahlil qilish, shuningdek, pedagogik vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq kompetensiyalarga ega bo‘lishlari ta‘minlanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Agrobiznes statistikasi modulining maqsad va vazifalari:

- “Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta‘limning sifati ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o‘zlashtirilishini ta‘minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish;
- “Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” yo‘nalishida o‘quv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Agrobiznes statistikasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida mutaxassislik fan bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- agrobiznes faoliyatida energetik vositalarini tasniflashni;
- agrobiznes faoliyatida aylanma fondlarini statistik baholashni;
- aylanma fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlarini statistik tahlil qilishni;
- agrobiznes faoliyatida mehnat unumdorligi darajalarini aniqlashni;
- agrobiznes faoliyatida ish haqi turlarini hisoblashni;
- mehnat unumdorligini natura, shartli natura, qiymat va mehnat o‘lchov birliklarida aniqlashni;

- o‘rtacha soatlik, kunlik, oylik, yillik ish haqi darajalarini aniqlashni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- agrobiznes faoliyatida ish vaqtdan foydalanish ko‘rsatkichlarini statistik tahlil qilish;

- agrobiznes faoliyatida mehnat unumdorligi darajasini hisoblash va statistik tahlil qilish;

- ekin maydonlarini ekin turlari bo‘yicha tasniflash;

- korxonaning asosiy va aylanma kapitallarini statistik tahlil qilish;

- asosiy kapitalni statistik baholash;

- ishlab chiqarish quvvati va investitsiyalardan foydalanishni hisoblash; ishlab chiqaradigan mashina va uskunalar haqida tushuncha hamda ularni tasniflash kabi **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- talaba rivojlangan chet el mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi statistikasini tashkil etilish;

- agrobiznes faoliyati to‘g‘risida ishonchli statistik axborot olish;

- tadbirkorlik asosida ishlab chiqarishining samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash;

- ish kuchidan unumli foydalanishni natijaviy ko‘rsatkichlarini hisoblash **malakalariga ega bo‘lishi** zarur.

Tinglovchi:

- makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimini tuzish tamoyillari, ularning tuzilishi va bog‘liqligini aniqlash;

- statistik ko‘rsatkichlarni tizimli ravishda tahlil qilish va ularni keng jamoatchilikka tushuntirish;

- statistik tahlillar asosida tarmoqlar va korxonalarining rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;

- qishloq xo‘jaligining asosiy fondlari va ulardan foydalanishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar mohiyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishni va ular asosida xulosalar chiqarish;

- respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbolini aniqlash va tadqiqoti uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlarni hisoblash metodologiyasi va uni statistik usullar yordamida tahlil qilish **kompetensiyasiga** ega bo‘lishi zarur.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Agrobiznes statistikasi” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion

texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Milliy hisoblar tizimi” va “Iqtisodiy statistika” kabi modullar bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning umummutaxassislik bo‘yicha tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy ekonometrik modellarni tuzish va qo‘llashdagi muammolarni aniqlash, ularni tahlil etish va baholash hamda optimal qarorlar qabul qilish va prognozlashga doir umummutaxassislik kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil ta’lim
			jami	jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
1.	Agrobiznes faoliyatini innovatsion, ya’ni zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiya va boshqaruv usullari asosida statistik o‘rganishning ilmiy-uslubiy asoslari	8	8	2	6		
2.	Agrobiznes faoliyatini boshqarishda mehnat resurslari rolini statistik o‘rganish	12	12	4	8		
3.	Agrobiznes faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari va moliyaviy natijalari statistikasi	32	10	2	8	10	12
	Jami:	52	30	8	22	10	12

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Agrobiznes faoliyatini innovatsion, ya’ni zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiya va boshqaruv usullari statistik o‘rganishning ilmiy-uslubiy asoslari. (2 soat).

Agrobiznes statistikasi va undagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari. Agrobiznes jarayoni va uni yanada takomillashtirish bo‘yicha islohotlar Davlat moliyasining ijtimoiy-

iqtisodiy mazmuni. Agrobiznes va uning bo'g'inlari. Agrobiznesni boshqarishning funksional elementlari va ularni takomillashtirish bo'yicha islohotlar.

Agrar soha – milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'i ekanligi, o'ziga xos xususiyatlari va ularni tarmoq statistikasini shakllantirishda hisobga olish zarurligi. Agrobiznes statistikasi ko'rsatkichlari tizimi. Agrobiznes statistikasini boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida agrobiznes statistikasi fanining tutgan o'rni va ahamiyati.

2-mavzu. Agrobiznes faoliyatini boshqarishda mehnat resurslari rolini statistik o'rganish (4 soat)

Real sektorning mazmuni va tasniflanishi. Real sektorning mehnat resurslari va uni statistik o'rganish ahamiyati. Real sektorda band bo'lgan mehnat resurslari (xodimlar) ko'rsatkichlari. Ro'yxatdagi, ishga kelgan va haqiqatda ishlagan xodimlar soni. Ro'yxatdagi xodimlarning o'rtacha soni va uni hisoblashning o'ziga xos jihatlari. Xodimlarning toifalari bo'yicha tasniflash. Xodimlarning harakati ko'rsatkichlari. Jahonmoliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida real sektorning boshqarish muammolari.

3-mavzu. Agrobiznes faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari va moliyaviy natijalari statistikasi (2 soat)

Faol tadbirkorlikda ishlab chiqarish xarajatlari turlari: joriy xarajatlar; kapital xarajatlar; ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan boshqa xarajatlar. Mahsulot tannarxi tushunchasi va turlari. Mahsulot tannarxini koalkulyatsiya moddalari va xarajat unsurlari bo'yicha guruhlash.

Agrar sohada mahsulot tannarxining o'rtacha darajasi va dinamikasi ko'rsatkichlari. Mahsulot tannarxining o'rtacha darajasi dinamikasiga omillar ta'sirini indeks tahlili.

Mahsulot tannarxi dinamikasini statistik o'rganish. Ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgarishiga omillar ta'sirini indeks tahlili. Mahsulot tannarxi o'zgarishini kalkulyatsiya moddalari bo'yicha statistik tahlili.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida real sektorda ishlab chiqarish moliyaviy natijalarini statistik o'rganish ahamiyati va zarurligi.

Agrar sohada ishlab chiqarish moliyaviy natijalari ko'rsatkichlari. Balans foyda. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan foyda. Sof foyda. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan foydani o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni statistik tahlili.

Agrar sohada rentabellik ko'rsatkichlari. Mahsulot rentabelligi darajasi. Umumiy rentabellik darajasi. Mahsulot rentabelligi dinamikasiga omillar ta'sirini indeks tahlili.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Agrobiznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshqaruv usullari statistik o'rganishning ilmiy-uslubiy asoslari. (6 soat).

O'zbekiston agrobiznesni barqaror rivojlantirishning ob'ektiv zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari. Agrobiznes faoliyati samaradorligini statistik baholashning nazariy asoslari. Agrobiznesni rivojlantirishda ilg'or mamlakatlar tajribalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari

2-mavzu. Agrobiznes faoliyatini boshqarishda mehnat resurslari rolini statistik o'rganish (8 soat)

Agrobiznes faoliyatini boshqarishda mehnat resurslari va uni statistik o'rganish ahamiyati. Agrobiznesda band bo'lgan mehnat resurslari ko'rsatkichlari. Agrobiznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi xodimlar harakati ko'rsatkichlari.

3-mavzu. Agrobiznes faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari va moliyaviy natijalari statistikasi (8 soat)

Agrobiznes faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari va uni statistik o'rganish ahamiyati. Agrobiznes faoliyatida mahsulot tannarxining o'rtacha darajasi dinamikasiga omillar ta'sirini indeks tahlili. Agrobiznes faoliyatida mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan foydani o'zgarishiga omillar ta'sirini statistik tahlili. Agrobiznes faoliyatida mahsulot rentabellik ko'rsatkichlari va ularni dinamikasiga omillar ta'sirini indeks tahlili.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash;
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

BAHOLASH MEZONI

Mazkur modul yuzasidan tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari nazorati quyidagi mezonlar orqali baholanadi:

№	Baholash turi	Eng yuqori ball 2,5	Izoh
1.	Ta'lim oluvchilar modulli o'quv axborotini o'zlashtirishlari uchun, o'qitishning maqsad va natijalarini, modul mazmunini aniq tanlanganligi	1,0 ball	Masala va topshiriqlarni bajarish - 1,0 ball.
2.	Modulli o'quv axborot: grafik, rasm ko'rinishda yetarli miqdorda, sifatli ma'lumotdan iborat bo'lishi		
3.	Vaziyat modelini yaratilishi	1,5 ball	Keys-stadi texnologiyasini ishlab chiqishi - 1,5 ball.
4.	Keys matni bayon etilishi		
5.	Keysning pedagogik pasportining tuzilishi		


II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari

Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinuvi.

Muzokaralarni o‘tkazish jarayonining tuzilishi



Bahs – o‘z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to‘g‘ri qarorni qabul qilish.

Anjuman-bahsining roli

Olib boruvchi – o‘rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning daliligini, tushuncha va atamalarning aniqligiga e‘tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o‘tishini kuzatadi.

Opponent – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so‘zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o‘z variantini taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – nutq so‘zlovchi va opponent fikrlaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

Psixolog – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalga oshirib, kelishuvga erishadi, bahsning mojaroga aylanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Ekspert –bahs usuliningnatijaviyiligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyiligini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qo‘shgan hissasi to‘g‘risida fikrlarni bildiradi va boshqalar.

«Aqliy hujum»

Aqliy hujum (breynstorming – miyalar bo‘roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.


Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o‘qib-o‘rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.


- **To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoali aqliy hujum** – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta‘minlaydi. Butun o‘quv guruhi (20 kishidan ortiq bo‘lmagan) bitta muammoni hal etadi.

- **Ommaviy aqliy hujum** – mikro guruhlariga bo‘lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.


- Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihati hal etiladi.

Ko'rgazmali taqdim etish: grafik tashkil etuvchilar





Venn diagrammasi




SWOT-tahlil jadvali

- SWOT** – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:
- Strengths**– kuchli tomoni, korxonada ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;
- Weakness**– kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi;
- Opportunities**– imkoniyatlar; korxonada rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar;
- Threats**– xavflar; tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

Qoidaga ko‘ra, SWOT – tahlilining muvaffaqiyati tashkilotga bog‘liq bo‘lmay, balki kelgusidagi strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda uning natijasi hisobga olinishiga bog‘liq bo‘ladi. Uni qo‘llashda elementlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

“Kuchlar tahlili” grafigi



«Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o‘qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxonalar rivojlanishi yoki muayyan biznes loyihasini amalga oshirishga xalaqit beruvchi to‘siqlar joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta’siri hamda jiddiyligiga mos kelishi lozim bo‘ladi.

So‘ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni yengib o‘tish vositalari strelka ko‘rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafikning o‘ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo‘lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo‘laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none">✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);✓ axborotni umumlashtirish;✓ axborot tahlili;✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none">✓ individual va guruhda ishlash;✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash;✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none">✓ individual va guruhda ishlash;✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none">✓ yakka va guruhda ishlash;✓ muqobil variantlarni amalga qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys.

Amaliy vaziyat. Ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajariladigan tadqiqotlar bo'yicha e'lon qilingan tanlovda Sizning grantingiz g'olib bo'ldi. Grant ijrochilari belgilangan bo'lsada, tashkilot rahbari ijrochi sifatida Siz tanimaydigan bir yosh mutaxassisni grantga qo'shishga ko'rsatma berdi. Siz andisha qilib uni grantga ijrochi sifatida kiritdingiz va u bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab berdingiz. 6 oy o'tdi. Ijrochi hech bir vazifani bajarmadi, lekin ish haqi olib yurdi. Grand ishtirokchilari o'rtasida e'tirozlar yuzaga keldi.

Bunday holatda Siz grand rahbari yoki ijrochi sifatida qanday yo'l tutasiz?

1. Rahbaringizga arz qilib, vaziyatni to'g'rilash uchun yordam so'raysiz.
2. Yosh mutaxassis vazifalarini o'zingiz bajarib borishingiz boshqa ijrochilarga aytib, vaziyatni to'g'rilaysiz.
3. Yosh mutaxassis vazifalarini boshqa ijrochilar bajarishi uchun taqsimlab berasiz.
4. Maslahatimiz uni granddan chiqarib tashlaysiz.
5. Yoki boshqacha yo'llarini topasiz.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Agrobiznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshqaruv usullari asosida statistik o'rganishning ilmiy-uslubiy asoslari (2 soat)

Reja

1. O'zbekiston agrobiznes faoliyatida xo'jalik yuritish shakllarini barqaror rivojlantirishning ob'ektiv zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari
2. Agrobiznes faoliyatida xo'jalik yuritish shakllari samaradorligini statistik baholashning nazariy asoslari
3. Agrobiznes faoliyatini rivojlantirishda ilg'or mamlakatlar tajribalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari

Kalit so'zlar: real sektor, xo'jalik yuritish shakllari, agrar soha, sanoat tarmog'i, fermer xo'jaliklari, iqtisodiy samaradorlik, ishab chiqarish, yalpi, tovar mahsulot, yalpi daromad, sof daromad, foyda

1. O'zbekiston agrobiznes faoliyatida xo'jalik yuritish shakllarini barqaror rivojlantirishning ob'ektiv zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa, eng avvalo, iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotning real sektoriga turlicha ta'rif beriladi va quyida biz ularning bir nechtasini ko'rishimiz mumkin:

1. Iqtisodiyotning real sektori (inglizcha – Real sector of economy) – iqtisodiy va qonuniy belgilanmagan iqtisodiy atama hisoblanadi va ma'lum hududdagi faoliyati mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kichik, o'rta va yirik (industrial) korxonalarni birlashtiradigan iqtisodiyot sohasidir.

2. Iqtisodiyotning real sektori – bu iqtisodiyotning muhim sektori bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri mahsulot ishlab chiqarish, daromad olish va byudjet daromadlari tushumini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish, mahsulot ishlab chiqarish sohasi uning iqtisodiy atama sinonimlari hisoblanadi.

(R.Xasanov, X.Asatullaev, A.Suvonqulov, X.Xakimov. "Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash". O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. TMI. T.: "Iqtisod-Moliya", 2013, 192-b)

3. Iqtisodiyotning real sektori – xom ashyo va boshqa ishlab chiqarish omillari (ishchi kuchi, yer va kapital) yoki ishlab chiqarish jarayoni orqali tovar va xizmatlar ishlab chiqarish tushuniladi. Bozor jamiyatning ishlab chiqarish va ishlab chiqarish omilini birlashtirishni anglatadi. (<http://www.asianinsider.com/Economic/definition.asp>)

4. Iqtisodiyotning real sektori – bu iqtisodiyotda moddiy buyum mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, moddiy boylikni yaratuvchi va xizmat ko‘rsatish sohasini o‘z ichiga oladigan soha. Real sektorga moliya-kredit va birja faoliyati kirmaydi.

(Komov, Analiz sistema kreditovaniya realnogo sektora ekonomiki Rossii v Ipolugodii 2004 g // Russkoe Ekonomicheskoe Obuyestvo 2004 №141 st. 7-8)

5. Nuqtai nazardan qaraganda, uy xo‘jaliklari va uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat institutlar ma‘lum bir holatlarda “boshqa ijtimoiy sektorlar” nomi ostidagi yagona subsektorlarga birlashadi.

(file:///F:/REAL%20SEKTOR/sectors.pdf)

Iqtisodiyotning real sektori – xom ashyo, mehnat va kapitaldan ajralmagan holda xizmat ko‘rsatish, mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalaridan iborat iqtisodiy sohadir. Iqtisodiyotda real sektorni samarali faoliyat yuritishida moliyaviy sektor muhim o‘rin egallaydi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarida mahalliy va xorijiy kredit institutlarining moliyaviy mablag‘laridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o‘z navbatida, muayyan qonuniyatlarga asoslanib iqtisodiyotga moliyaviy resurslarni yo‘naltirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bunday tadbirlar oldindan bilish, bashoratlash kabi usullarini hamda mazkur jarayonlarning jamiyat istiqbolida qanday natijaga olib kelishini avvaldan namoyon etadigan uslubiyotini o‘z ichiga olgan yaxlit dastur sifatida o‘rganishga doir vazifalarni kun tartibiga qo‘yadi. Mazkur vazifalar ijrosini ta‘minlash so‘nggi yillarda respublikamizdagi real sektor korxonalarini moliyaviy manbalarini boshqarish va ushbu sohani rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Bizga ma‘lumki, iqtisodiyotning real sektori taraqqiyoti mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta‘minlash, boshqaruv mexanizmlarining yechimlarini tanlash kabi imkoniyatlarni beradi. Bu esa, istiqbolda rejalashtirilgan maqsadlarga erishish uchun joriy holatdagi iqtisodiy jarayonlarga ta‘sir etish yo‘llarini belgilaydi.

Jahonda integratsiya va globallashtirish jarayonlarining chuqurlashib borishi milliy iqtisodiyot oldiga bir qator yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Milliy iqtisodiyotning dunyo bozorida o‘z o‘rnini topishi, ya‘ni ma‘lum mavqeni egallashi uchun doimiy ravishda real sektor korxonalarini texnik va texnologik jihatdan zamonaviylashtirib borish lozim. Ushbu maqsadlarga erishish uchun milliy iqtisodiyotning barcha sohasida texnik va texnologik yangilanishni amalga oshirish kerak. Bunga, ishlab chiqarishda boshqaruvning yangi usullarini hamda fan va texnika yutuqlarini doimiy ravishda joriy etish orqaligina erishish mumkin. Mamlakatimizda ham keyingi yillarda fan va texnika yutuqlarini, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini va ishlab chiqarish boshqaruvini yangi usullarini amaliyotga joriy etish orqali iqtisodiyotning real sektori korxonalarining ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishiga va moliyaviy barqarorligini oshirishiga juda katta e‘tibor berilmoqda. Zamonaviy informatsion texnologiyalar va nanotexnologiyalarning ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilishi mehnat resurslarining

kasbiy malakasini oshirishni taqozo etish barobarida, ularning sifati sohaning raqobatbardoshligini va keyingi yillarda yuksak natijalarga erishishiga zamin bo'ladi.

Mamlakat iqtisodiyoti, shu jumladan, real sektorni isloh qilish, modernizatsiyalash va uning tarkibiy tuzilishlarini diversifikatsiyalash ushbu tarmoqlarda zamonaviy ko'rinishdagi va har tomonlama raqobatga chidamli faoliyat sub'ektlarini rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilishini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Shuni e'tiborga olgan holda, o'tgan davr mobaynida iqtisodiyot va real sektorni erkinlashtirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash borasida ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi. Bular esa, o'z navbatida, respublikamiz iqtisodiyotini yanada barqarorlashtirish, har xil iqtisodiy-ijtimoiy tahdidlarni samarali hal qilish imkonini bermoqda.

Yurtimizda real sektorda xo'jalik yuritish shakllarining nazariy va ilmiy asosini har tomonlama va uning barcha variantlarini hayotga tadbiq etib, eng samarali shaklini tavsiya etish muhim iqtisodiy muammo sifatida talqin etildi. Zotan, fermer va dehqon xo'jaliklari xo'jalik yuritishning eng maqbul shakli sifatida, avvalo, har bir dehqonga manfaatdorlik bilan erkin mehnat qilish, o'z mehnati natijalarini mustaqil tasarruf etish imkonini beradi. Mamlakat aholisining aksariyat qismi qishloqlarda yashashi, real sektor mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i ekanligi, milliy daromadning katta qismi aynan agrar tarmoqdan olinadigan mahsulot va ularni qayta ishlash natijasida vujudga kelgan mahsulotlar ulushiga to'g'ri kelishi, ayni shu tizimdagi islohot samarasini xalq xo'jaliginig boshqa tarmoqlaridagi islohotlar sur'ati va miqyosini belgilab berish xususiyatiga egaligi bilan qimmatlidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida real sektor xo'jalik yuritishning ilg'or usullaridan biri bo'lib, xususiy mulkchilik negizini tashkil etgan moddiy va ma'naviy manfaatdorlik, hamda mas'ullikdan samarali foydalanishga imkon yaratib beradigan real sektorni maqbul shakllantirish va unda xo'jalik yuritish mexanizmini doimiy takomillashtirib borishni talab etadi.

2. Agrobiznes faoliyatida xo'jalik yuritish shakllari samaradorligini statistik baholashning nazariy asoslari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik sub'ekti faoliyatining pirovard natijasi samaradorlik bilan o'lchanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi - iqtisodiy kategoriya bo'lib, xo'jalik faoliyat yuritayotgan tabiiy, ilmiy–texnik, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar majmuini o'zida aks ettiradi. Real sektor ishlab chiqarishining samaradorligi eng umumiy ko'rinishda ishlab chiqarish jarayonining natijaviyligini, o'z navbatida ishlab chiqarish resurslarining takomillashganlik darajasi va ulardan foydalanish samaradorligini aks ettiruvchi erishilgan natija hamda sarflangan jonli va buyumlashgan mehnat o'rtasidagi o'zaro nisbatni bildiradi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ob'ektiv zarurligi doimiy ta'sir qiluvchi omillar va mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holatining qator o'ziga xosliklari bilan izohlanadi. Real sektorda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bir tomondan oziq-ovqat va xom-ashyoga, mahsulot sifatiga bo'lgan talabning ortishi, ba'zi bir turdagi resurslarni ko'paytirish yoki kengaytirish imkoniyatining yo'qligi tufayli zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan jamiyat rivojlanishining hozirgi

bosqichi real sektor ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Real sektorda ishlab chiqarish samaradorligiga bir qator omillar ta'sir etadi. Ularni tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va tabiiy ekologik omillarga bo'lish mumkin. Bu omillarning birgalikdagi ta'siri ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlaydi.

Samaradorlikka ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar:

Tashkiliy-huquqiy omillarga:

-real sektorda ishlab chiqarishning ixtisoslashish darajasi;

-yer maydoni o'lchamini maqbullashtirish

- mehnatni tashkil etish va rag'batlantirish mexanizmining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi;

-fermerlarni moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash va ularga servis xizmati ko'rsatish darajasi;

-fermer xo'jaliklar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

-fermerlarning bilim va malakasi;

-fermerlarni axborot bilan ta'minlanish darajasi va maslahat berish;

-qonun, qaror va boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar;

-shartnomaviy munosabatlar tizimi.

-fermer ho'jaliklari tomonidan yetishtirilayotgan mahsulotlarning baholari;

Fermer xo'jaligi faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar.

Iqtisodiy omillarga:

-fermer xo'jaligida ishlab chiqarishning ixtisoslashish darajasi;

-yer maydoni o'lchamini maqbullashtirish

- mehnatni tashkil etish va rag'batlantirish mexanizmining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi;

-fermerlarni moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash va ularga servis xizmati ko'rsatish darajasi;

-fermer xo'jaliklar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

-fermerlarning bilim va malakasi;

-fermerlarni axborot bilan ta'minlanish darajasi va maslahat berish;

-qonun, qaror va boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar;

-shartnomaviy munosabatlar tizimi.

-fermer ho'jaliklari tomonidan yetishtirilayotgan mahsulotlarning baholari;

-ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan moddiy-texnika resurslarining baholari;

-moliya-kredit resurslari bilan ta'minlanish holati;

-subsidiya, dotatsiya ko'rinishidagi davlat tomonidan bevosita va bilvosita iqtisodiy qo'llab quvvatlash.

Texnologik omillarga:

-yuqori hosilli o'simlik navlari va chorva hayvonlari zotlari bilan ta'minlanganlik darajasi;

-ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashganlik darajasi;

-tuproqqa ishlov berishni minimallashtirish;

-ishlab chiqarishning yangi, tejimli texnologiyalarini qo'llash.

Tabiiy-ekologik omillarga:

- fermer xo‘jaligi foydalanadigan yer maydonlarining sifati, ya‘ni unumdorligi, sho‘rlanish darajasi, sizot suvlarining chuqurligi va boshqalar;
- suv bilan ta‘minlanganlik darajasi va uning sifati;
- yillik yog‘in miqdori;
- geografik joylashuvi va reliefi;
- shamol, samarali harorat va boshqa metereologik omillar;
- zararli chiqindilar chiqaruvchi korxonalarining mavjudligi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o‘tilgan omillarning barchasi birgalikda fermer xo‘jaligi faoliyati pirovard natijasini ijobiy bo‘lishini ta‘minlaydi. Mazkur omillarning ba‘zilarini bevosita fermer xo‘jaligi boshlig‘i tomonidan boshqarish mumkin bo‘lsa, ba‘zi omillar fermerga bog‘liq bo‘lmagan holda ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, tabiiy-ekologik omillar yoki jamiyatdagi makroiqtisodiy holat fermerga bog‘liq bo‘lmagan holda ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘kidlash kerakki, ushbu omillar ichida bir qatorlari ishlab chiqarish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, fermer xo‘jaligi boshlig‘ining bilim va malakasi boshqa omillardan to‘g‘ri foydalanish, ayrim omillarni boshqarish imkonini beradi.

3. Agrobiznes faoliyatini rivojlantirishda ilg‘or mamlakatlar tajribalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari

Jahon iqtisodiyotida davom etayotgan murakkab jarayonlar hamda salbiy tendensiyalar sharoitida mamlakatni barqaror iqtisodiy o‘stirishning muhim omili sifatida ichki talabni rag‘batlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash kabi keng ko‘lamli islohotlar sharoitida real sektor milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishining asosiy moliyaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Real sektor orqali mamlakat miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulot taqsimlanish jarayonida davlat ixtiyorida markazlashtirilgan pul fondi shakllantiriladi.

Ma‘lumki, real sektor tabiat bilan bevosita bog‘liq. Real sektor korxonalari, shu jumladan, real sektor faoliyatining yakuniy natijasi ob-havoning qanday kelishi, bozordagi real sektor mahsulotlari baholari va boshqa omillar bilan uzviy bog‘liq. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda real sektor bozordagi narx-navoning tushib ketishidan mustahkam himoya qilinadi. Shuning uchun ham hukumat fermerlar uchun real sektor mahsulotlari bahosining minimal chegarasini belgilab qo‘yadi. Ya‘ni, bozorda ma‘lum bir turdagi mahsulotning narxi o‘ta tushib ketganda uni davlat fermerlardan kafolatlangan narxlarda sotib oladi. Bundan tashqari ko‘pgina xorijiy davlatlarda, shu jumladan, AQShda ayrim turdagi real sektor mahsulotlarini yetishtirish uchun hukumat fermerlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lov ko‘rinishidagi dotatsiya, subsidiyalar bilan ta‘minlaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri dotatsiya beriladigan mahsulot turlari hukumatning agrar siyosatiga muvofiq har yili o‘zgarib turadi.

Ta‘kidlash joizki, keyingi yillarda ko‘pgina halqaro tashkilotlar, xususan, Butunjahon Savdo Tashkiloti (BST) o‘z a‘zolariga fermerlarga bevosita yordam ko‘rsatishni to‘xtatish talabini qo‘ymoqdalar. Ana shu talabdan kelib chiqqan holda ko‘pgina davlatlar fermerlarga bevosita subsidiyalar berishni kamaytirmoqdalar.

Lekin, shu bilan birgalikda fermerlarni bilvosita qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish davom etmoqda.

Fermerlarni qo'llab-quvvatlashda davlatning roli hamma sohada ko'zga tashlanadi. Masalan, ko'pgina davlatlarda fermerlarni sug'urtalashni ham hukumat qo'llab-quvvatlaydi. Ya'ni, fermer hosilini tabiiy ofat yoki boshqa sabablar tufayli hosilni yo'qotilishi sug'urtalayotganda, ular tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofotining asosiy qismini hukumat to'lab beradi. Masalan, AQShda hosilni sug'urta qilish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va shu bilan birgalikda o'z hosilini sug'urta qildir-magan real sektorga davlat dotatsiya bermaydi. Davlatdan dotatsiya olishni hohlagan fermer o'z hosilini sug'urta qildiradi.

Mamlakatimizda real sektorning daromadlilikini oshirish maqsadida yuqoridagi tajribadan foydalanish, ya'ni hukumat tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholarini har yili bozordagi sharoitga qarab fermer zarar ko'rmaydigan miqdorda belgilash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari hukumat fermerlarni sug'urta qilish bilan shug'ullanuvchi yagona tashkilot «Uzagrosug'urta» sug'urta kompaniyasini bevosita qo'llab-quvvatlayotgan bo'lsada, fermerlarni bu sohada qo'llab-quvvatlayotgani yo'q. Aksariyat fermerlarda sug'urta mukofoti to'lash uchun mablag' yetishmagan hozirgi sharoitda hukumat ular tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofotining bir qismini qoplab berishi lozim. Bu real sektor faoliyatida tavakkalchilikni kamaytirish, fermerlarni barqaror daromad olishini ta'minlash imkonini beradi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari hamda AQShda real sektorni kreditlash sohasida ham katta tajriba to'plangan. Ta'kidlash kerakki, fermerlarni kreditlashda ham davlatning roli nihoyatda katta. Ma'lumki, fermer xo'jaligi uzoq muddatli va shu bilan birgalikda past foizli kreditlarga muhtoj bo'lishadi. Rivojlangan davlatlarda fermerlarni kreditlash tizimini huddi shu sharoitga moslashtirishga harakat qilingan. Shu bilan birgalikda banklar o'rtasida keskin raqobatning mavjudligi ham banklarni fermerlarga sifatli xizmat ko'satishga majbur qiladi. Masalan, AQShda 7887 ta bank faoliyat yuritib ularning ikki minga yaqini ya'ni 25 foizi fermerlarga kredit berish bilan shug'ullanadi. Nafaqat banklar o'rtasida, balki kredit berish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'rtasida ham raqobat muhitini yaratish fermerlarni kredit bilan ta'minlash sharoitini osonlashtiradi.

AQSh, G'arbiy Yevropa mamlakatlari kabi rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan davlatlarda real sektorning turli xil kooperatsiyalarga birlashishi bo'yicha ham boy tajriba to'plagan. Bir qator davlatlarning real sektor sohasidagi erishgan yutuqlariga ko'p jihatdan turli xil kooperatsiyalarning tashkil etilishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi sabab bo'lgan. Bu mamlakatlarda fermerlar ishlab chiqarish, ta'minot, xizmat ko'rsatish, marketing va boshqa shu kabi kooperatsiyalarga birlashadilar.

Kredit kooperativlari - fermerlar kooperatsiyasining qadimgi shakli hisoblanadi. O'zining rivojlanishi davomida ular katta moliya-kredit tashkilotlariga aylanib ketishgan.

Rivojlangan davlatlarda kooperatsiya jarayonini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari byudjet subsidiyalar, soliqdagi imtiyozlar, real

sektor kooperativlari vakillarini davlat me'yoriy xo'jaliklarini tayyorlashga jalb etish hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kooperativlar real sektor faoliyatini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirishda va pirovardida real sektor mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi. Shuni hisobga olgan holda, mamlakatimizda real sektor ishtirokidagi kooperativlarni iqtisodiy-moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda fermerlar ongiga o'zaro kooperatsiyaning afzalliklarini singdirgan holda, ularni kooperatsiyalarga ongli ravishda birlashishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun fermerlar orasida keng miqyosda targ'ibot-tashviqot ishlarini joriy qilish, kooperativlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni aniq chora-tadbirlarini belgilash shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda fermerlarga maslahat, axborot xizmatlarini ko'rsatishda ham katta tajriba to'plangan. Dastlabki davrlarda ko'pgina davlatlarda fermerlarga bepul axborot-maslahat xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarning barcha xarajatlari davlat tomonidan qoplab berilgan. Keyinchalik fermerlar axborot maslahat xizmatlarning ahamiyatini, foydasini to'la tushunib yetganlaridan so'ng ularga pullik xizmatlar ko'rsatila boshlangan.

Shu bilan birgalikda bir qator davlatlarda fermerlar uyushmalari va boshqa tashkilotlar o'zlarining a'zolariga axborot-maslahat xizmati ko'rsatadilar. Masalan, AQShda milliy fermerlar tashkilotlari (Nationalfarmersorganization) o'z a'zolariga imtiyozli narxlarda axborot-maslahat xizmati ko'rsatadi. Shunday tizim o'rnatilganki, fermer tashkilot xizmatidan qancha ko'p foydalansa, bu xizmatlar unga shunchalik arzon tushadi.

Shuni hisobga olgan holda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan real sektor uyushmasini fermerlarga axborot-maslahat beruvchi asosiy tashkilot sifatida faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish lozim. Buning uchun uyushmada ana shunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi bo'limning moddiy-texnika bazasini kengaytirish, kompyuter va boshqa jihozlar bilan ta'minlash, Internet tarmog'iga ulanish, eng muhimi esa bo'limni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadga muvofiq. Bu jarayon dastlabki paytda ko'p miqdorda mablag' talab qilishini hisobga olgan holda, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash lozim. Ma'lum vaqt o'tishi bilan bu albatta o'z samarasini beradi.

Real sektorda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishni tashkil qilishda ham rivojlangan xorijiy davlatlarda katta tajriba to'plangan. Umumiy qilib olganda, bu mamlakatlarda fermerlar o'z mahsulotini sotishda to'la erkinlikka ega. Fermer uchun mahsulotini qaerda sotish qulay bo'lsa, u o'sha bozorni tanlaydi. Masalan, AQShda fermerlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni sotishda yuqorida ta'kidlanganidek, kooperativlar ham muhi o'rin tutadi. Bundan tashqari fermerlar to'g'ridan-to'g'ri savdo shahobchalari, supermarketlar bilan shartnoma asosida ham ularga o'z mahsulotlarini yetkazib beradilar.

Fermerlar tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishning uchinchi eng muhim kanali birjalardir. Fermer o'z mahsulotini birja orqali sotish uchun birjadagi o'z savdo agentiga yoki brokerga murojaat qiladi va o'zidagi mavjud

mahsulotning turi, miqdori, sifati to'g'risida axborot beradi. Ana shu axborotga asosan broker vositachilik xaqi evaziga mahsulotni birjada sotadi va bu fermer uchun ancha qulay usul hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, davlat qishloq xo'jalik mahsulotlari narxining eng quyi chegarasini belgilaydi. Barcha kanallardagi narxlar ana shu chegaradan pastga tushib ketsa, davlat fermer tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni o'zi kafolatlagan narxlarda sotib oladi va fermerni zarar ko'rishiga yo'l qo'ymaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Real sektorning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Real sektorda ishlab chiqarish samaradorligiga qanday omillar ta'sir etadi?
3. Real sektor qanday ustuvor yo'nalishlari ega?
4. Real sektor statistikasi nimani o'rganadi?
5. Real sektor statistikasining qanday xususiy usullarini bilasiz?
6. Real sektor statistikasi oldida qanday vazifalar turadi?
7. Real sektorning o'ziga xos qanday xususiyatlarini bilasiz?
8. Statistik ko'rsatkichlarni shakllanishiga real sektorning xususiyatlari qanday ta'sir qiladi?
9. Real sektorda ishlab chiqarishining moddiy asoslarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar deganda qanday ko'rsatkichlarni tushunasiz?
10. Real sektorda ishlab chiqarishi jarayoni va uning natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tushuntiring.
11. Real sektorning iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar deganda qanday ko'rsatkichlarni tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521).
2. Rangaswamy, R. Specification of a Textbook of Agricultural Statistics (English) 2nd Edition. // Indian, hisobot yar.
3. Agriculture, forestry and fishery statistics — 2014 edition. Luxembourg: Publications Office of the European Union, o'tgan. Marcel Jortay Director, Sectoral and Regional Statistics
4. Ayubjonov A.H., Mamatqulov B.X., Sayfullaev S.N.. Qishloq xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. – T., 2012 y
5. Mamatqulov B.X. Qishloq xo'jaligi statistikasi fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, hisobot. – 176 bet.
6. Abduraxmonov M.A. Qishloq xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. – 97 bet
7. Afanasev V.N., Markova A.I.. Statistika selskogo xozyaystva. Ucheb. posobie. – M.: FiS, hisobot
8. Bashkatov B.I. Statistika selskogo xozyaystva. Kurs leksiy. Kurs leksiy. – M.: EKMOS, 2014, 128-137 s
9. X.Nabiyev, D.X. Nabiyev. Axmedova M.Sh. Sanoat statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 164 bet.

2-mavzu. Agrobiznes faoliyatini boshqarishda mehnat resurslari rolini statistik o‘rganish (4 soat)

Reja

1. Agrobiznes faoliyatida mehnat resurslari va uni statistik o‘rganish ahamiyati.
2. Agrobiznes faoliyatidaband bo‘lgan mehnat resurslari ko‘rsatkichlari.
3. Agrobiznes faoliyatidaxodimlar harakati ko‘rsatkichlari.
4. Ish vaqti balanslari.
5. Ish vaqtidan foydalanish ko‘rsatkichlari.
6. Ishlangan vaqt fondi hajmida omillar ta‘sirini statistik tahlili.
7. Mehnat unumdorligi darajasini natural, mehnat va qiymat ko‘rsatkichlari.
8. Mehnat unumdorligi dinamikasini statistik o‘rganish.
9. Mehnat unumdorligi darajasini oshishida ish vaqtidan foydalanish ta‘sirini indeks tahlili.

Qisqacha xulosalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Agrobiznes faoliyatidamehnat resurslari va uni statistik o‘rganish ahamiyati.

Mehnat resurslari deganda Qishloq xo‘jaligida mehnatga layoqatli, bilim va malakaga, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lgan insonlar tushuniladi.



Qishloq xo‘jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish manbaidir. Har qanday o‘simlik ham yerda vujudga keladi. Ammo kishilarning hayoti uchun zarur bo‘lgan o‘simliklarning juda ko‘pi, bizning tushunchamizdagi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari kishilar mehnatining ham samarasidir. Xalq o‘jaligining hamma tarmoqlari singari, qishloq xo‘jaligida ham moddiy boyliklarni kishilar yaratadi.

Ishlab chiqarish vositalari qanchalik yuksak rivojlanmasin, jonli mehnat ta‘sir qilmasa, u vositalar harakatsiz qolaveradi. Shuning uchun ham ishlab chiqarishda ishchi kuchining o‘rni g‘oyat kattadir. Statistika fani qishloq xo‘jaligidagi ishchi kuchi, mehnat resurslarini maxsus o‘rganadi. Ishchi kuchlarining soni tarkibi va harakatini o‘rganish, ish vaqtidan foydalanishni aniqlash, mehnatga haq to‘lash tartibini, har xil xodimlar - muhandis-texnik xodimlar, xizmatchilar, ishchilar va boshqalar oladigan maoshlari darajasini o‘rganish, mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish manbalarini qidirib topish, mehnat yuzasidan tuzilgan rejalarining bajarilishini nazorat qilish statistikaning asosiy vazifasidir.

2. Agrobiznes faoliyatidaband bo‘lgan mehnat resurslari ko‘rsatkichlari.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi xususiyatlar qishloq xo‘jaligida mehnat statistikasining ham o‘ziga xosligini talab qiladi. Xususan qishloq xo‘jaligidagi xodimlarning ish bilan bandligini doimiy, vaqtincha va mavsumiy ish bilan band

xodimlar deb ajratish zarurati tug'iladi, mehnat unumdorligining to'la ko'rsatkichlarini yil oxiridagina hisoblab aniqlash mumkin bo'ladi. Chunki, yetishtirilgan mahsulotning to'la miqdori faqat yil oxirida ma'lum bo'ladi.

Mehnat resurslarini tavsiflaydigan eng muhim ko'rsatkich xodimlarning ro'yxatidir. Bu ro'yxatga mehnat shartnomasi bo'yicha ishga qabul qilingan doimiy va mavsumiy ishlaydigan xodimlarning hammasi kiradi. Ro'yxatdagi xodimlarning o'rganiladigan davr ichidagi o'rtacha soni olib hisoblanadi.

Xodimlarning o'rtacha sonini aniqlash uchun har bir kalendar kun ro'yxatidagi xodimlarning (masalan, oylik) soni jamlanib shu oydagi kunlar soniga bo'linadi. Aytaylik, aprel oyining har bir kunida ro'yxatdagi xodimlarning sonini jamlaganimizda 19520 raqami hosil bo'ldi. Shu raqam aprel oydagi 30 kunga bo'linsa, xodimlarning ro'yxatidagi o'rtacha soni kelib chiqadi:

$$19520 : 30 = 656 \text{ kishi}$$

3. Agrobiznes faoliyatidaxodimlar harakati ko'rsatkichlari.

Xodimlarning o'rtacha chorak sonini aniqlash uchun har oylikning o'rtacha sonini jamlab, hosil bo'lgan raqam 3 ga bo'linadi. Xodimlarning bir yillik o'rtacha soni ham shu usul bilan aniqlanadi: xodimlarning har oydagi o'rtacha ro'yxat soni jamlanib 12 ga bo'linadi; xodimlarning o'rtacha soni har chorakda hisoblanib borilgan bo'lsa, choraklardagi o'rtacha sonlar jamlanib chiqqan son 4 ga bo'linadi.

Xo'jalikda doimiy kadrlarga ega bo'lish, ishchi va xizmatchilar o'rtasidagi qo'nimsizlikni tugatish mehnat unumdorligini oshirishning muhim shartidir. Shuni nazarga olib, xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda ishchi kuchlarning harakati sinchiklab o'rganiladi. Buning uchun ishchi kuchlarning aylanmasi va qo'nimsizligi alohida o'rganiladi. Ishchi kuchlarning aylanmasi deganimizda xodimlar sonidagi xodimlarning ishdan ketish va yangi xodimlarning ishga qabul qilinishi natijasida ro'y beradigan o'zgarishlarni tushunamiz. Ishdan ketish turlicha bo'lishi mumkin: xodimning o'z xohishi bilan ketishi, mehnat intizomini buzishi sababli bo'shatilishi mumkin va h.k. Hamma ishdan bo'shaganlar soni xodimlarning o'rtacha ro'yxat soniga nisbati ishchi kuchlarning qo'nimsizligi deb ataladi.

Ishchi kuchlar aylanmasi tezligi ishchi kuchlar aylanmasining koeffitsienti bilan ifodalanadi. Ishga qabul qilinganlar koeffitsienti ularning o'rganilayotgan davrda xodimlarning o'rtacha soniga nisbati bilan, ishdan ketganlar koeffitsienti esa ishdan ketganlarning o'rganilayotgan davrda xodimlarning o'rtacha soniga nisbati aniqlanadi. Masalan, xo'jalikka yil davomida, 40 kishi qabul qilinib, xodimlarning ro'yxatdagi yillik o'rtacha soni 650 ta bo'ldi, yangidan qabul qilingan koeffitsienti $(40 \cdot 100) : 650 = 6,15\%$ bo'ladi. Ishdan ketib qolganlar koeffitsienti ham xuddi shu tariqa aniqlanadi.

4. Ish vaqti balanslari.

Ishchi kuchlardan foydalanish ko'rsatkichlari ish vaqtining kalendar fondi hisoblanadi.

5. Ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlari.

Ma'lumki, ishchilar dam olish kunlari va mehnat ta'tili vaqtida ishda bo'lmaydilar, shuning uchun bu kunlar ish vaqtining kalendar fondidan chiqarib tashlansa, ish vaqtining maksimal ish vaqti fondi hosil bo'ladi. Shunday qilib, maksimal ish vaqti fondi (haqiqiy ishlagan kuni) ish vaqtining kalendar fondiga bo'linsa, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi kelib chiqadi.

$$\frac{\text{Максимал иш вакти фонди}}{\text{Иш вақтининг календарь фонди}} = \text{Мехнат ресурсларидан фойдаланиш даражаси}$$

Xo'jalikda mehnat resurslariga doir barcha ma'lumotlar statistika boshqarmasiga topshiradigan hujjatlar hamda ularning yillik hisobotlarida ko'rsatilgan bo'ladi.

6. Ishlangan vaqt fondi hajmida omillar ta'sirini statistik tahlili.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi kabi qishloq xo'jaligi korxonolari faoliyatining samaradorligi ham mehnat resurslari, ulardan foydalanish darajasi va mehnat unumdorligiga bog'liq.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi ma'lum ish vaqti birligida (kishi-kun, kishi-soatda) ishlab chiqarilgan mahsulotining miqdori yoki ma'lumoti miqdordagi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqti bilan o'lchanadi. Bu quyidagicha ifodalanadi:

$$MU = \frac{\text{Махсулот}}{\text{Сарфланган иш вақти}}$$

Mehnat unumdorligini to'g'ri hisoblash uchun yetishtirilgan mahsulot hajmi bilan shu mahsulotni yetishtirish uchun sarflangan ish vaqtini aniq belgilash kerak.

Mehnat unumdorligi darajasini hisoblash uchun quyidagilarni bilmoq zarur:

a) yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining natura va qiymat ifodasidagi hajmi;

b) mahsulot yetishtirish uchun sarflangan vaqt (kishi kun, kishi-soat) hajmi.

Bir kishi - kun (bir kishi – soat) davomida qancha mahsulot (don, paxta, sut, jun va hokazo yetishtirilganligini aniqlash uchun va mahsulot birligiga qancha vaqt (kishi-kun, kishi-soat) sarflanganini bilish uchun jamoalarining yillik hisobotidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlar yil oxirida hisobga olinadi, shuning uchun mehnat unumdorligi darajasi ham yil oxirida aniqlanadi.

7. Mehnat unumdorligi darajasini natural, mehnat va qiymat ko'rsatkichlari.

Mehnat unumdorligi darajasi natura ko'rsatkichi bilan hisoblanganda ba'zi bir qishloq xo'jaligi ekinlari va chorvachilik mahsulotlarining bir-biriga yaqinligi ham e'tiborga olinadi.

Masalan, don o'simliklarining poxoli, somoni, chorvachilikda, aytaylik, sigirlar sut berish bilan birga tug'adi ham, tug'ilgan buzoqlarning vazni oshib boradi va h.k.

Xo'sh, endi bu asosiy va bir-biriga yaqin mahsulotlar o'rtasida mehnat xarajati qanday taqsimlanadi? Buning uchun avvalo jami mehnat sarflari dehqonchilikdan va chorvachilikdan olingan har bir turdagi mahsulotda belgilangan koeffitsientlari bo'yicha bo'lib boriladi yoki har bir mahsulotga uning sotish bahosidagi qiymati bo'yicha proporsional taqsim qilinadi. Qo'ychilikda qorakulteri, jun va semirtirib oshirilgan vazn shu mahsulotlarni sotish narxiga proporsional taqsim qilinadi.

Misol. Xo'jalikda o'tgan yil 14878 dona qorako'l teri tayyorlandi, 374,1 s. jun qirqib olindi, quylar semirib orttirilgan jonli vazni 1450s. Bu mahsulotlarning sotish narxidagi qiymati shu tartibda 267,8 ming so'm, 243,2 ming so'm va 174 ming so'mdir. Bu mahsulotlarni yetishtirishda bevosita 208800 kishi-soat mehnat sarf qilingan. Mahsulot birligiga bevosita sarf qilingan mehnat salmog'ini aniqlaymiz.

1. Qorako'l teri yetishtirishdagi mehnat sarfining salmog'ini aniqlaymiz:

$$\frac{267,8}{267,8+243,2+174,0} = \frac{267,8}{685,0} = 0,391;$$

Junning salmog'i $(243,2:685,0)=0,355$; semirish vaznining salmog'i $174,0:685,0=0,254$.

2. Ayrim mahsulotlarga nisbat qilingan mehnat sarfi:

- a)qorako'l terilarga $-208800 \times 0,391=81640,8$ kishi-soat;
- bir dona teriga hisoblanganda- $81640:14878=5,5$ kishi-soat bo'ladi,
- b)jun yetishtirishga $-208800 \times 0,355=74124$ kishi-soat,
- 1s junga hisoblanadi- $74124:374,1 \approx 198$ k/s;
- v)qo'ylarni semirtirishga $-20880 \times 0,254=53035,2$ k/s, 1 s. ga hisoblanganda - $53035,2:1450=36,6$ k/s.

Mehnat unumdorligi darajasining natura ko'rsatkichlari ancha sodda va tushunarli. Undan ma'lum mahsulot (paxta, g'alla, jun, sut) yetishtirishdagi mehnat unumdorligini o'lchashda foydalanish mumkin.

Mehnat unumdorligini naturada o'lchash usuli ayrim korxonalar yoki ishlab chiqarish sharoitlari taxminan bir xil bo'lgan korxonalar guruhi bo'yicha mehnat unumdorligini hisoblashda qo'llaniladi. Biroq ularni hisoblashda faqat mahsulotning turini ishlab chiqarish uchun bevosita sarflangan mehnat olinadi, xolos, ammo umumxo'jalik xarajatlari va boshqa xarajatlar bu hisobga mutlaqo kiritilmaydi.

Qishloq xo'jaligining murakkab tarmoqlarida mehnat unumdorligi darajasini kengroq xarakterlash uchun qiymat ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Mehnat unumdorligining qiymat ko'rsatkichi xo'jaliklar va xo'jalik tarmoqlari bo'yicha mehnat unumdorligi darajasini taqqoslashga yordam beradi.

Xo'jalik faoliyati, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashti-rishning kengayib borishi, agrotexnika tadbirlaridan tobora samarali foydalanilishi, ilg'or tajribalar keng ko'lamda joriy qilinishi natijasida mehnat unumdorligi oshib boradi.

Statistika mehnat unumdorligining o'sishi va dinamikasini, unga ta'sir qiladigan omillarni o'rganadi, tahlil qiladi va mehnat unumdorligini oshirishning manbalarini topishda qishloq xo'jaligi tashkilotlariga yordam beradi.

8. Mehnat unumdorligi dinamikasini statistik o'rganish.

Mehnat unumdorligini tahlil qilish jarayonida mahsulot turlari bo'yicha mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi, mehnat unumdorligi yuzasidan belgilangan rejaning bajarilishi tekshiriladi, ilg'or tajribalar o'rganiladi va ularni targ'ib qilish, qoloq xo'jaliklarga joriy qilish yo'llari aniqlanadi, mehnat unumdorligini yanada oshirish uchun zarur tadbirlarni amalga oshirishda xo'jaliklarga yordam beriladi.

Mehnat unumdorligi yuzasidan belgilangan rejaning bajarilishi va dinamikasini tahlil qilishda indeks metodlari – natural, mehnat va qiymat indeksleri qo'llaniladi.

Mehnat unumdorligi dinamikasini o'rganishda mehnat unumining yakka, individual yoki umumiy yig'ma indeksi qo'llaniladi.

Bo'lim, fermer xo'jaligining ayrim tur mahsulotlar yetishtirishdagi mehnat unumdorligi darajasida yuz beradigan o'zgarishlarni xarakterlash uchun yakka indekslardan foydalaniladi. Yakka indeks bazis davrida yetishtirilgan mahsulot birligiga sarflangan ish vaqtini hisobot davrida sarf qilingan ish vaqtiga bo'lib aniqlanadi.

Bir necha tur mahsulot yetishtirishdagi mehnat unumdorligi dinamikasini o'rganishda umumiy yig'ma indeks qo'llaniladi.

1 -jadval

Xo'jalikning mahsuloti va mehnat xarajatlari

Ekinlar	Ekinlarning yalpi hosili, s.		Mehnat xarajatlari, kishi-kun	
	Bazis davr	Joriy davr	Bazis davr	Joriy davr
Don ekinlari	3174,0	3325,5	2837,5	2320,2
Paxta	45415	47084	201150	195682
Kartoshka	357	900	488,8	930,0

Yakka va umumiy indeks yordamida mahsulot yetishtirishdagi mehnat unumdorligi dinamikasini aniqlash formulalari quyidagilardir:

a) alohida miqdor indeksi:

$$i = q_1 T_1 : q_0 T_0$$

b) umumiy natural indeksi:

$$I = \frac{\sum \left(\frac{q_1}{T_1} : \frac{q_0}{T_0} \right) T_1}{\sum T_1}$$

Bunda: q_1 va q_0 -hisobot va bazis yillarida yetishtirilgan mahsulot (paxta, g'alla, sut va h.k.) miqdori

T_1, T_0 -hisobot va bazis yillarda mahsulot yetishtirish uchun bevosita sarflangan mehnat xarajatlari. (kishi-kun)

Mehnat unumdorligining natural indeksi yordamida hisoblash yo'lini jadvaldagi shartli misoldako'ramiz.

Jadvaldagi ma'lumotlar yakka indeks formulasiga qo'yib ishlansa, mehnat unumdorligining indeksi ekinlar bo'yicha quyidagicha bo'ladi:

Don ekini:

$$i = \frac{q_1}{T_1} : \frac{q_0}{T_0} = \frac{3325,5}{2320,2} : \frac{3174}{2837,5} = 1,433 : 1,118 = 1,282 \text{ ёки } 128,2\%$$

$$\text{Пахта} : i = \frac{q_1}{T_1} : \frac{q_0}{T_0} = \frac{47084}{195682} : \frac{45415}{201150} = 0,241 : 0,226 = 1,06 \text{ ёки } 106\%$$

$$\text{Картошка} : i = \frac{q_1}{T_1} : \frac{q_0}{T_0} = \frac{900}{930} : \frac{357}{488,8} = 0,967 : 0,73 = 1,324 \text{ ёки } 132,4\%$$

Butahlildanko‘rinibturibdiki,

xo‘jalikdahisobotyilidabazisyilganisbatandonmahsulotiningyalpihosili 151,5 s. ga (3325,5-3174,0) ko‘paygan, mehnatxarajatesa 517,3 kishi-kunga (2837,5-2320,2) kamaygan, natijadamehnatunumdorligi 28,2% oshgan. Demak, donningyalpihosiliasosanmehnatumumdorliginingoshirilishihisobigako‘paygan.

Paxtaetishtirishdamehnatumumdorligioshganligidanhisobotyilidapaxtanibazisyilgan isbatan 1669 sko‘paytiribbergan (47084-45415) 6% gaoshgankartoshkaetishtirishdahisobotyilidamehnatxarajatabazisyilgaqaragandaqar iybikkibarobarko‘pbo‘lgan,

ammoshungayarashahosilhamikkiyarimbarobardanziyodroqoshirilgan, demak, hosilningoshishigaboshqasabablardantashqarimehnatumumdorligining 32,4% gaoshishihamsababbo‘lgan.

Mehnatumumdorliginingumumiynaturalindeksiyordamidatahlilqilishformulasibund ay:

$$I = \frac{\sum \left(\frac{q_1}{T_1} \div \frac{q_0}{T_0} \right) \cdot T_1}{\sum T_1}$$

yoki bu formulani qisqartirib:

$$I = \frac{\sum i \cdot T_1}{\sum T_1}$$

shaklida ham yozish mumkin.

Bir qancha mahsulot (paxta, don, kartoshka va boshqalar) yetishtirish uchun sarf qilingan mehnat xarajati ko‘rsatkichlari asosida shu ekinlarni yetishtirishdagi umumiy mehnat unumdorligi umumiy indeks yordamida aniqlanadi.

Xo‘jalikning uch xil mahsulotini bitta qilib ularni yetishtirishdagi mehnat unumdorligi tahlilini umumiy indeks formulasiga qo‘yib ko‘ramiz.

$$I = \frac{\sum i \cdot T_1}{\sum T_1} = \frac{1,282 \cdot 2320,0 + 1,06 \cdot 195682 + 1,324 \cdot 930}{2320,2 + 195682 + 930} = \frac{211628,7}{198932,2} = 1,06 \text{ ёки } 106\%$$

Umumiy indeks shuni ko‘rsatdiki, don, paxta va kartoshka ekinlarini yetishtirishda mehnat unumdorligi 6,0 foizga ko‘paygan.

Endi mehnat unumdorligini mehnat indeksi formulasi yordamida tahlil qilish yo‘lini ko‘rsatamiz:

Mehnat indeksining

$$\text{Якка индекси} : i = \frac{t_0}{t_1}$$

$$\text{Умумий индекси} : I = \frac{\sum t_0 \cdot q_1}{\sum t_1 \cdot q_1}$$

Bunda:

i – mehnat unumdorligining mehnat yakka indeksi.

t_0 – bazis davrida mahsulot birligiga sarflangan mehnat.

t_1 – hisobot davrida mahsulot birligiga sarflangan mehnat.

q_1 – hisobot davrida mahsulot hajmi.

Mehnat unumdorligi indeksini ma'lumotlar asosida quyidagi jadvalda aniqlaymiz.

Jadvaldagi ma'lumotlarni mehnat unumdorligining mehnat indeksi formulasiga qo'yib ishlaymiz.

Yakka indeks bo'yicha:

2-jadval

Ekinlar	Ekinlarning yalpi hosili, s.		Bir sentner mahsulotga sarflangan mehnat (kishi-kun)	
	Bazis davri	Joriy davri	Bazis davri	Joriy davri
Don	3174,0	3325,5	0,89	0,73
ekinlari	45415	47084	4,30	4,27
Paxta	357	900	1,37	1,03
Kartoshka	819	1239	1,29	1,30
Sabzavot				

$$\text{дон экинлари индекси} \quad i = \frac{t_0}{t_1} = \frac{0,89}{0,73} = 1,216 \quad \text{ёки} \quad 121,6\%$$

$$\text{пахта индекси} \quad i = \frac{t_0}{t_1} = \frac{4,30}{4,27} = 1,01 \quad \text{ёки} \quad 101\%$$

$$\text{картошка индекси} \quad i = \frac{t_0}{t_1} = \frac{1,37}{1,03} = 1,330 \quad \text{ёки} \quad 133\%$$

$$\text{сабзавот экинлари} \quad i = \frac{t_0}{t_1} = \frac{1,29}{1,30} = 0,992 \quad \text{ёки} \quad 99,2\%$$

Умумий агрегат индекси бўйича :

$$I = \frac{\sum t_0 \cdot q_1}{\sum t_1 \cdot q_1} = \frac{0,89 \cdot 3325,5 + 4,30 \cdot 47084 + 1,37 \cdot 900 + 1,29 \cdot 1239}{0,73 \cdot 3325,5 + 4,27 \cdot 47084 + 1,03 \cdot 900 + 1,30 \cdot 1239} = \frac{208152,2}{206014,0} = 1,01 \quad \text{ёки} \quad 101\%$$

Umumiy indeks natijasi shuni ko'rsatadiki, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan don, paxta, kartoshka va sabzavot ekinlari yetishtirishda mehnat unumdorligi 101% bo'lgan yoki 1% ga oshgan. Mazkur indeks asosida ish kunlarining tejalgan yoki ortiqcha xarajat qilinganligini aniqlash mumkin. Bizning misolda

$$\sum t_0 \cdot q_1 - \sum t_1 \cdot q_1 = 208152,2 - 206014,0 = 2138,2 \quad \text{kishi - kun tejalgan.}$$

Mehnat unumdorligining biz yuqorida ishlatgan natural va mehnat indekslarini bir xo'jalikning yoki tabiiy va iqtisodiy sharoiti teng bo'lgan bir qancha xo'jalikning

mahsulot yetishtirishdagi mehnat unumdorligi dinamikasini aniqlashda qo'llash mumkin. Ammo xo'jalik guruhlarining yer suvi, ob-havosi va iqtisodiy sharoitlari teng bo'lmagan, bu jihatdan bir-biridan farq qiladigan xo'jaliklarga nisbatan bu indekslarni qo'llab bo'lmaydi. Tabiiy va iqtisodiy sharoiti teng bo'lmagan xo'jaliklar, tuman, viloyat va respublikalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda sarflangan mehnat xarajatlari va mehnat unumdorligi dinamikasini aniqlab taqqoslash uchun mehnat unumdorligining qiymat indeksi qo'llaniladi. Mehnat unumdorligining qiymat indeksi formulasi mana bunday bo'ladi:

$$I = \frac{\sum q_1 \cdot P}{\sum T_1} \div \frac{\sum q_0 \cdot P}{\sum T_0},$$

Bunda: q_1 va q_0 – hisobot va bazis davridagi mahsulot hajmi.

T_1 va T_0 – hisobot va bazis davridagi mehnat xarajati (kishi-kun, kishi-soat).

R – mahsulotning ikki davrga taalluqli o'zgarish bahosi.

Bu formuladan foydalanish uchun mahsulotlarning hajmini uning shu yilgi bahosiga yoki o'zgarish bahoga ko'paytirib yalpi mahsulot qiymati topiladi, so'ngra bu son shu mahsulotlarni tayyorlash uchun sarflangan hamma mehnat xarajatiga (kishi-kunlariga) bo'linadi. Shu tariqa mahsulotlarning qiymati bo'yicha mehnat unumdorligi aniqlanadi.

Ish haqi fondi rejaning bajarilishi amaldagi ish haqi fondini rejada belgilangan hajmi bilan haqiqiy foydalanish o'rtasida tafovut yuz bersa, bu farq xodimlarning rejadagi sonini oshirish yoki kamaytirish va rejaga nisbatan o'rtacha ish haqi darajasini oshirish yoki kamaytirish tufayli sodir bo'lganligi aniqlanadi. O'rtacha ish haqi mehnatga xaq to'lashning muhim ko'rsatkichidir.

Ish haqi fondi rejaning bajarilishini tahlil qilishda barcha asosiy xodimlar, ishchilar kategoriyasi xodimlarining ayrim yetakchi kasbi bo'yicha ish haqining o'rtacha ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi.

Bu ko'rsatkich ayrim kategoriya xodimlari va ishchilar guruhiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish haqini xodimlarning o'rtacha soniga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Bunda bir ishchining o'rtacha oylik ish haqini ham, o'rtacha yillik ish haqini ham hisoblash mumkin. Bu ko'rsatkichlarning bir necha yilligi olib solishtirilsa, jamoa xodimlariga to'lanadigan o'rtacha mehnat haqining o'zgarib borishi-dinamikasi ayon bo'ladi. O'rtacha ish haqining yillar bo'yi o'zgarib borishi, ya'ni dinamikasi agregat indeks formulasi yordamida aniqlanadi.

$$I = \frac{\sum X_1 \cdot T_1}{\sum X_0 \cdot T_1}$$

Bunda: X_1, X_0 – hisobot va bazis davridagi o'rtacha ish haqi.

T_1 – ishchilarning hisobot davridagi o'rtacha soni.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarini yaxshi yo'lga qo'yish, xodimlarning ish turlari bo'yicha bandlilik zaruratini aniqlash, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish manbaidir. Har qanday o'simlik ham yerda vujudga keladi. Ammo kishilarning hayoti uchun zarur o'simliklarning juda ko'pi, bizning tushunchamizdagi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari kishilar mehnatining ham samarasidir.

Iqtisodiyotning hamma tarmoqlari singari, qishloq xo'jaligida ham moddiy boyliklarni kishilar yaratadi. Ishlab chiqarish vositalari qanchalik yuksak bo'lmasin, jonli mehnat ta'sir qilmasa, u vositalar harakatsiz qolaveradi. Shuning uchun ham ishlab chiqarishda ishchi kuchining roli g'oyat kattadir. Statistika fani qishloq xo'jaligidagi ishchi kuchi, mehnat resurslarini maxsus o'rganadi. Ishchi kuchlarining soni tarkibi va harakatini o'rganish, ish vaqtidan foydalanishni aniqlash, mehnatga haq to'lash tartibini, har xil xodimlar muhandis-texnik xodimlar, xizmatchilar, ishchilar va boshqalar oladigan maoshlari darajasini o'rganish, mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilashga va mehnat unumdorligini oshirish zaxiralarini qidirib topish, mehnat yuzasidan tuzilgan rejalarning bajarilishini nazorat qilish statistikaning asosiy vazifasidir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mehnat resurslari deb nimaga aytiladi?
2. O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksiga binoan mehnat resurslarining quyi va yuqori chegaralarini ayting va tushuntiring.
3. Mehnat resurslarining tarkibiy qismlari.
4. Mehnat resurslari statistikasining vazifalari.
5. Mehnat resurslari sonini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
6. Ro'yxatdagi ishlovchilar soni qanday aniqlanadi?
7. Ishlovchilarning o'rtacha yillik soni qanday aniqlanadi?
8. Ishdan bo'shatish koeffitsienti deganda qanday ko'rsatkich tushuniladi?
9. Kadrlarning doimiylik koeffitsienti qanday aniqlanadi, mazmuni nimadan iborat?
10. Mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari.
11. Maksimal imkoniyat ish vaqtidan foydalanish koeffitsienti nimani bildiradi?
12. Ro'yxatdagi ishchilardan foydalanish koeffitsienti.
13. Mehnat unumdorligi deb nimaga aytiladi?
14. Mehnat unumdorligining ko'rsatkichlari necha xil bo'ladi va ularning mazmunini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //”Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521).
2. Rangaswamy, R. Specification of a Textbook of Agricultural Statistics (English) 2nd Edition. // Indian, hisobot yar.
3. Agriculture, forestry and fishery statistics — 2014 edition. Luxembourg: Publications Office of the European Union, o‘tgan. Marcel Jortay Director, Sectoral and Regional Statistics
4. Ayubjonov A.H., Mamatqulov B.X., Sayfullaev S.N.. Qishloq xo‘jaligi statistikasi. O‘quv qo‘llanma. – T., 2012 y
5. Mamatqulov B.X. Qishloq xo‘jaligi statistikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, hisobot. – 176 bet.
6. Abduraxmonov M.A. Qishloq xo‘jaligi statistikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004. – 97 bet
7. Afanasev V.N., Markova A.I.. Statistika selskogo xozyaystva. Ucheb. posobie. – M.: FiS, hisobot
8. Bashkatov B.I. Statistika selskogo xozyaystva. Kurs leksiy. Kurs leksiy. – M.: EKMOS, 2014, 128-137 s
9. X.Nabiyev, D.X. Nabiyev. Axmedova M.Sh. Sanoat statistikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011. – 164 bet.
10. N.M. Xarchenko. Ekonomicheskaya statistika. Uchebnik. – M.: Dashkov i K, 2010. – 368 str.
11. Mikroekonomicheskaya statistika. Uchebnik. Pod red. S.D.Ilenkovoy. – M.: INFRA-M, 2004. – 544 str.

3-mavzu. Agrobiznes faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari va moliyaviy natijalari statistikasi (2 soat)

Reja:

1. Agrobiznes faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari va uni statistik o‘rganish ahamiyati.
2. Agrobiznes faoliyatida mahsulot tannarxining o‘rtacha darajasi dinamikasiga omillar ta‘sirini indeks tahlili.
3. Agrobiznes faoliyatida mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan foydani o‘zgarishiga omillar ta‘sirini statistik tahlili.
4. Agrobiznes faoliyatida mahsulot rentabellik ko‘rsatkichlari va ularni dinamikasiga omillar ta‘sirini indeks tahlili.

Kalit so‘zlar: ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, sotishdan olingan foyda, rentabellik ko‘rsatkichlari.

1. Agrobiznes faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari va uni statistik o'rganish ahamiyati.

Real sektorda maxsulot ishlab chiqarishda biror ish bajarilishida yoki xizmat ko'rsatishda jonli mehnat va oldingi o'tgan davr mehnati sarflanadi. Ular real sektorda maxsulot ishlab chiqarishda, ish bajarishda, xizmat ko'rsatishdagi sarflar yoki xarajatlar deb yuritiladi. Ishlab chiqarishning ijtimoiy sarfi biror maxsulot birligini ishlab chiqarish uchun jonli va o'tgan davr mehnatini to'liq xarajatlaridir.

Tarmoq bo'yicha ishlab chiqarishni ijtimoiy sarfi o'z ichiga shu mahsulotni ishlab chiqarishda real sektor korxonasini to'g'ridan to'g'ri sarfini, xo'jaliklararo va tarmoqlararo (sug'orish tizimidan foydalanish, umumiy yo'llardan, elektr tarmoqlaridan foydalanish xarajatlarini va xakazo) sarflarni qamrab oladi.

O'tgan davr (moddilashgan) mehnat turli darajada rivojlanayotgan tarmoqlarga tegishli bo'lganligi sababli uni to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish uslubiy jihatidan ancha qiyindir. Uni tarmoqlararo to'la sarflar koeffitsentlarini hisoblash asosida aniqlash mumkin.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarini o'rnatilishi halq xo'jaligida, sektorlarda, tarmoqlarda, mintaqalarda turli mulk shakllaridagi Qishloq xo'jaligi korxonalarida xaqiqiy xarajatlarni miqdorini aniq hisoblashni taqazo etadi.

1. Agrobiznes faoliyatida mahsulot tannarxining o'rtacha darajasi dinamikasiga omillar ta'sirini indeks tahlili

Davlat statistika hisobotining tarkibidagi «Korxonalar sarf xarajatlari to'g'risidagi hisobot»da 5-S shakl ishlab chiqarish xarajatlari qo'yidagi sarflarning yig'indisidan tashkil topgan:

1. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi;
2. Davr xarajatlari;
3. Moliyaviy faoliyat xarajatlari;
4. Favqulotdagi zararlar.

Biz bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish xarajatlari statistikasiga to'xtalidik.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari deb qanday sarflar tushuniladi?

Mahsulotlarni tayyorlash uchun qilingan barcha moddiy va mehnat sarflari yig'indisi ishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishini statistik tahlil qilish uchun iqtisodiy indeks usulidan foydalandik.

hisobot yilidagi xarajatlar summasini bazis yilidagi xarajatlar summasiga solishtirib, uning umumiy o'zgarishi nisbiy va mutloq ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlanadi. Buning uchun ishlab chiqarish xarajatlari indeksi formulasidan foydalanish kerak:

$$I_{qz} = \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_0 z_0}$$

buerda, q_1z_1 - hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari summasi (hisobot yilidagi mahsulot miqdori (q_1) isobot yilidagi bir birlik mahsulot tannarxi (z_1) ga ko'paytirilib, aniqlangan xarajat summasi); q_0z_0 - bazis yilida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish xarajatlari summasi.

Ushbu formu ladan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishi quyidagi ikki omil hisobiga yuz aga kelgan:

1. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdorining o'zgarishi hisobiga ($q_1 - q_0$);
2. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar birirligi tannarxining o'zgarishi hisobiga ($z_1 - z_0$).

Ushbu omillarning ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun quyidagi ikki umumiy indeks formulalaridan foydalanish zarur:

1. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar fizik miqdorining umumiy indeksi:

$$I_q = \frac{\sum q_1 z_0}{\sum q_0 z_0}$$

bunda, ($q_1 z_0$) - shartli ishlab chiqarish xarajatlari summasi

(hisobot yilidagi mahsulot miqdorini bazis yilidagi bir birlik mahsulot tannarxiga ko'paytirib aniqlangan xarajatlar summasi).

2. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxining umumiy indeksi:

$$I_z = \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_1 z_0}$$

Mahsulotlar fizik miqdori indeksi bilan mahsulotlar tannarxi umumiy indeksining ko'paytmasi har doim ishlab chiqarish xarajatlari umumiy indeksiga teng kelishi shart:

$$\frac{\sum q_1 z_0}{\sum q_0 z_0} \cdot \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_1 z_0} = \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_0 z_0}$$

Qishloq xo'jaligi korxonalarida hamma mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari uch asosiy guruhdan tashkil topadi:

- 1) asosiy ishlab chiqarish vositalarining amortizatsiya ajratmalari;
- 2) xomashyo, yoqilg'i va yordamchi materiallar urug'lik, yonilg'i, o'g'it, yem-xashak va h.k. xarajatlar;
- 3) qishloq xo'jaligi korxonalarida xodimlariga to'lanadigan ish haqi.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining shu tariqa uch guruhga bo'linishi barcha xarajatlarning iqtisodiy mazmuniga qarab, jonli mehnat xarajatlari bilan

buyumlashgan mehnat xarajatlarining salmog'ini belgilab, sof mahsulot hajmini aniqlashga yordam beradi.

Mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlar kalkulyatsiya moddalari bo'yicha guruhlariga bo'linadi. Bunday guruhlariga bo'lish kalkulyatsiya hisoblarini qilish, mahsulot tannarxining tuzilishini o'rganish, haqiqiy xarajatlar bilan rejada ko'rsatilgan xarajatlar o'rtasidagi farqni aniqlash va tannarxni pasaytirish yo'llarini topish uchun zarurdir.

Turli xarajatlar mahsulot tannarxiga turlicha qo'shiladi.

Bunday qo'shilish tannarx tuzilishi ikkiga bo'lib o'rganiladi:

1) mahsulotning ma'lum bir turini yetishtirish bilan bog'liq va mahsulot tannarxiga batamom kiradigan bevosita xarajatlar, masalan, urug'lik, yem-xashak, ish haqi va h.k.;

2) mahsulotning bir necha turini yoki barcha mahsulotlarni yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan kompleks bilvosita xarajatlar.

Bunga mahsulot tannarxiga qiymati qisman kiradigan, aytaylik transportni, ta'mirlash ishxonalarini saqlash, hayvonlarni boqish xarajatlari va h.k. kiradi. Bu xarajatlar bitta mahsulotga yuklatilmay, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishdagi xarajatlar quyidagi kalkulyatsiya moddalari bo'yicha ko'rsatiladi:

1. Ish haqi ustamalar; 2. Yonilg'i va moylash materiallari; 3. Urug'liklar; 4. O'g'itlar; 5. Asosiy fondlar ammortizatsiyasi; 6. Asosiy fondlarning ta'miri; 7. Avtotransport; 8. Boshqa asosiy xarajatlar; 9. Umumiy ishlab chiqarish va xo'jalik xarajatlari.

Chorvachilikda urug'liklar va o'g'itlar xarajatlari yo'q, ammo unda yem-xashak, dori-darmon xarajatlari bor.

Barcha tarmoqlardagi mahsulot tannarxi kishi mehnati sarflaridan iborat. Bunday mehnatning bir qismi mahsulot ishlab chiqarishga bevosita sarflanadi va bu jonli mehnat deb ataladi. Mehnatning yana bir qismi shu mahsulotni ishlab chiqarishda qatnashadigan texnika, sarflanadigan materiallar, yem-xashak, urug'liklardan iborat bo'lib, mehnatning bu qismi o'tgan yoki moddiylashgan mehnat deb ataladi. Tannarxni tashkil etuvchi xarajatlar moddiy xarajatlardan (urug'lik, o'g'it, yem-xashak qiymati, texnika va inventarlarning amortizatsiya qiymati) va mehnat xarajatlaridan (pul bilan ifodalangan jonli mehnat – ish haqi, mehnat ta'tili pullari va h.k. dan) iborat.

Mahsulot tannarxi shirkatlar va fermalar ishining asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biridir. Mahsulot birligiga sarflanadigan xarajat kamaysa, tannarx kamayadi. Xo'jalikning iqtisodiyoti yuksaladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxi statistikasining vazifasi mahsulot yetishtirishda mehnat va moddiy mablag'lar xarajati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini to'plash, ularni qayta ishlab chiqish va iqtisodiy tahlil qilishdan iborat. Mahsulot tannarxi materiallarini tahlil qilishda tannarx va rentabellik darajasi, tannarx yuzasidan belgilangan rejaning bajarilishi, tannarx dinamikasi, xarajatlar tarkibi va h.k. ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish lozim.

Mahsulot tannarxini kamaytirish uchun mehnat unumdorligini oshirish, asosiy fondlardan ratsional foydalanish qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi, chorva

mollarining mahsuldorligini oshirish, material sarflarini kamaytirish va ishlab chiqarishda tejamkorlikka qattiq rioya qilish zarurdir.

3. Agrobiznes faoliyatida mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan foydani o'zgarishiga omillar ta'sirini statistik tahlili

Qishloq xo'jalik mahsulotlari xar bir turini tavsiflashda statistika natura va shartli natura ko'rsatkichlaridan foydalanadi, xo'jalik va uning tarmoqlari, tuman, viloyat va respublika bo'yicha iqtisodiyotning umumiy natijalariga baxo berishda ulardan foydalanib bulmaydi. Shuning uchun qiymat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Qiymat ko'rsatkichlarining ustunligi shundan iboratki, ular har turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarining (paxta, bug'doy, go'sht, sut va h. kazolarning) taqqoslamaligini ta'minlaydi, xo'jalik faoliyatining jamlovchi hamda iqtisodiyotning barcha jabxalari bo'yicha umumlashtiruvchi qiymat ko'rsatkichlarni aniqlash imkoniyatini yaratadi. Umumlashtiruvchi qiymat ko'rsatkichlari xo'jaliklar, regionlar va mamlakat iqtisodiyotiga baho berishda ishlatiladigan asosiy ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi.

Milliy hisoblar tizimi iqtisodiyotga kirib kelganga qadar qishloq xo'jaligining asosiy umumlashtiruvchi qiymat ko'rsatkichlari bo'lib, quyidagilar hisoblangan:

1. Yalpi mahsulot;
2. Tovar mahsuloti;
3. Sotilgan mahsulot;
4. Yakuniy mahsulot;
5. Sof mahsulot.

Yalpi mahsulot. Bu – tayyor mahsulot bilan tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari o'zgarishining summalari yig'indisi tariqasida aniqlanuvchi umumlashtiruvchi qiymat ko'rsatkichi bo'lgan.

Tovar mahsuloti. Bu – sotish uchun tayinlangan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmini ifodalaydigan umumlashtiruvchi qiymat ko'rsatkichi bo'lgan.

Sotilgan mahsulot. Bu – iste'molchilarga bevosita yetkazib berilgan (sotilgan) qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini ifodalaydigan umumlashtiruvchi qiymat ko'rsatkichi bo'lgan.

Yakuniy mahsulot. Bu – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish iste'mollari hamda jamg'arma uchun yo'naltirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining qiymatini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lgan.

Sof mahsulot. Bu – yalpi mahsulot bilan uni ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar qiymatlari orasidagi farq tariqasida aniqlangan umumlashtiruvchi qiymat ko'rsatkichi bo'lgan.

4. Agrobiznes faoliyatida mahsulot rentabellik ko'rsatkichlari va ularni dinamikasiga omillar ta'sirini indeks tahlili.

Mahsulot tannarxini tahlil qilishda statistikaning muhim vazifasi mahsulot tannarxi bo'yicha reja ko'rsatkichlarining bajarilishini nazorat qilish, tannarx dinamikasini kuzatish va mahsulot tannarxiga ta'sir qiladigan omillarni tahlil qilish,

qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish uchun manbalar topishda xo'jaliklarga yordam berishdir. Mahsulot tannarxining iqtisodiy tahlilida asosan indeks metodi qo'llaniladi. Agar bir xildagi mahsulotni, masalan, tannarx yuzasidan rejada belgilangan ko'rsatkichning bajarilishi yoki dinamikasini shu yil ko'rsatkichini o'tgan yil ko'rsatkichi bilan taqqoslab aniqlamoqchi bo'lsak, uning formulasi:

$$I = Z_1 : Z_0 \text{ shaklda bo'ladi.}$$

Bunda: I- alohida indeks

Z_1 -hisobot yilidagi mahsulot tannarxi

Z_0 -bazi yilidagi mahsulot tannarxi.

Agar bir emas, bir qancha mahsulot tannarxini bir yo'la bitta qilib aniqlamoqchi bo'lsak, u holda tannarxning umumiy indeksidan foydalanib quyidagi formulani ishlatamiz:

$$I = \frac{\sum Z_1 \cdot q_p}{\sum Z_p \cdot q_p} \quad \text{ёки} \quad I = \frac{\sum Z_1 \cdot q_1}{\sum Z_0 \cdot q_1}$$

Bunda: I-umumiy indeks.

Z_1 -hisobot yilidagi mahsulot tannarxi

Z_0 -bazi yildagi mahsulot tannarxi.

Foyda – ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo'shimcha mahsulotning bir qismidir va o'zgargan shaklidir. Demak, foyda ishlab chiqarish jarayonida qo'shimcha mahsulot tariqasida tashkil topadi, ammo u mahsulot sotilgandan keyin o'z shaklida namoyon bo'ladi. Mahsulot sotishdan olingan foydani aniqlash uchun sotilgan mahsulotlar qiymatidan (mahsulotni sotishdan olingan pul tushumidan) mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxini chegirib tashlamoq kerak, ya'ni qo'yidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\sum qp - \sum qz$$

bunda, q – u yoki bu davrda sotilgan har bir mahsulotni miqdori;

p – har bir sotilgan mahsulotning u yoki bu davrdagi o'rtacha sotish bahosi;

qp – sotilgan jami mahsulotning qiymati (sotishdan olingan jami pul tushumi);

qz – sotilgan jami mahsulotning tannarxi;

$qp - qz$ – mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda summasi.

Shu keltirilgan formuladan foydalanib bazi davri uchun ham, hisobot davri uchun ham yalpi foyda summasini aniqlash mumkin:

Bazi bavi uchun $q_0 p_0 - q_0 z_0$.

hisobot davri uchun $q_1 p_1 - q_1 z_1$.

Korxonada foydasining mutlaq miqdori uning massasini (hajmini) tashkil qiladi. Foyda massasini xarajatlarga, resurslarga, kapitalga nisbati uning nisbiy miqdorini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich rentabellik deb ataladi. Rentabellik 1 so'mlik yoki 100 so'mlik xarajatlarga, resurslarga, kapitalga nisbatan necha so'mlik foyda

olinganligini yoki zarar ko‘rilganligini ifodalaydi. Biz bu yerda xarajatlarga nisbatan hisoblangan rentabellikning statistik tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligini aniqlash uchun mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydani 100 % ga ko‘paytirib, natijasini sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga bo‘lamiz:

$$r = \frac{p-z}{z} \cdot 100$$

bunda, r - sotilgan mahsulotlar bir birligining o‘rtacha sotish bahosi;

z – sotilgan mahsulotlar bir birligining ishlab chiqarish tannarxi;

$(p-z)$ – sotilgan mahsulotlar bir birligidan olingan foyda.

Ushbu formula yordamida rentabellik darajasini bazis va hisobot yillari uchun aniqlab olinadi, so‘ngra solishtirib o‘zgarishi aniqlanadi. Ushbu o‘zgarish bevosita ikki omil hisobiga sodir bo‘ladi:

1. O‘rtacha bahoning o‘zgarishi hisobiga;
2. O‘rtacha tannarxning o‘zgarishi hisobiga.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Agrobiznes faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari deb qanday sarflar tushuniladi?
2. Ishlab chiqarish xarajatlarining statistik tahlili.
3. Ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasi indeksining mazmunini tushuntiring.
4. Mahsulot tannarxi deb nimaga aytiladi?
5. Mahsulot bir birligining tannarxi qanday aniqlanadi va qanday statistik tahlil etiladi?
6. O‘rtacha tannarx qanday aniqlanadi va uning indeksi qanday ifodalanadi, ta’riflanadi?
7. Ishlab chiqarish tarkibi va doimiy tarkibdagi mahsulot tannarxi indekslarini tushuntiring.
8. Mahsulot tannarxi umumiy indeksi formulasi asosida tannarxni statistik tahlil qiling.
9. Mahsulotlarni sotishdan olingan foydaning mazmunini va uni aniqlash usulini tushuntiring.
10. Yalpi foydani indeks usulidan foydalanib, statistik tahlil qiling.
11. Yalpi foydaning o‘zgarishiga Qaysi omillar ta’sir qiladi va ularning ta’sirini Qaysi indekslardan foydalanib, aniqlash mumkin.
12. Rentabellik deb nimaga aytiladi, uning mazmunini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //”Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521).

2. Rangaswamy, R. Specification of a Textbook of Agricultural Statistics (English) 2nd Edition. // Indian, hisobot yar.
3. Agriculture, forestry and fishery statistics — 2014 edition. Luxembourg: Publications Office of the European Union, o'tgan. Marcel Jortay Director, Sectoral and Regional Statistics
4. Ayubjonov A.H., Mamatqulov B.X., Sayfullaev S.N.. Qishloq xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. – T., 2012 y
5. Mamatqulov B.X. Qishloq xo'jaligi statistikasi fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, hisobot. – 176 bet.
6. Abduraxmonov M.A. Qishloq xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. – 97 bet
7. Afanasev V.N., Markova A.I.. Statistika selskogo xozyaystva. Ucheb. posobie. – M.: FiS, hisobot
8. Bashkatov B.I. Statistika selskogo xozyaystva. Kurs leksiy. Kurs leksiy. – M.: EKMOS, 2014, 128-137 s
9. X.Nabiyev, D.X. Nabiyev. Axmedova M.Sh. Sanoat statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 164 bet.
10. N.M. Xarchenko. Ekonomicheskaya statistika. Uchebник. – M.: Dashkov i K, 2010. – 368 str.
11. Mikroekonomicheskaya statistika. Uchebник. Pod red. S.D.Ilenkovoy. – M.: INFRA-M, 2004. – 544 str.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN TAVSIYALAR

Amaliy mashg‘ulot **maqsadi** tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Mashg‘ulotlar respublikamizdagi ilg‘or korxonalar va tashkilotlarda o‘tkaziladi hamda amaliy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan amaliyotchilar bilan hamkorlikda o‘tkaziladi. Mashg‘ulot davomida tinglovchilar kadrlarni innovatsion boshqarish, innovatsion faoliyat rivojlanishida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llanishi, korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish tajribasi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini monitoring qilish, O‘zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanishi to‘g‘risida amaliy ko‘nikmalar hosil qiladilar.

1 - amaliy mashg‘ulot: Agrobiznes faoliyatini innovatsion, ya’ni zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiya va boshqaruv usullari asosida statistik o‘rganishning ilmiy-uslubiy asoslari.

Dars shakli baxs-munozara. Ishning maqsadi tinglovchilarda real sektor rivojlanishning mohiyati, iqtisodiyot va uning shakllanishi hamda amal qilishi xususiyatlarini muhokama etish va ko‘nikma hosil etishdan iborat.

Ishni bajarish uchun quyidagi masalalar muhokama etiladi:

1. O‘zbekiston agrobiznes faoliyatida xo‘jalik yuritish shakllarinibarqaror rivojlantirishning ob‘ektiv zaruriyati va o‘ziga xos xususiyatlari
2. Agrobiznes faoliyatidaxo‘jalik yuritish shakllari samaradorligini statistik baholashning nazariy asoslari
3. Agrobiznesfaoliyatini rivojlantirishda ilg‘or mamlakatlar tajribalaridan foydalanishniing asosiy yo‘nalishlari

Muhokama uchun savollar

Nazorat savollari:real sektor, xo‘jalik yuritish shakllari, agrar soha, sanoat tarmog‘i, fermer xo‘jaliklari, iqtisodiy samaradorlik, ishab chiqarish, yalpi, tovar mahsulot, yalpi daromad, sof daromad, foyda

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //”Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521).
2. Rangaswamy, R. Specification of a Textbook of Agricultural Statistics (English) 2nd Edition. // Indian, hisobot yar.
3. Agriculture, forestry and fishery statistics — 2014 edition. Luxembourg: Publications Office of the European Union, o‘tgan. Marcel Jortay Director, Sectoral and Regional Statistics
4. Ayubjonov A.H., Mamatqulov B.X., Sayfullaev S.N.. Qishloq xo‘jaligi statistikasi. O‘quv qo‘llanma. – T., 2012 y

5. Mamatqulov B.X. Qishloq xo'jaligi statistikasi fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, hisobot. – 176 bet.
6. Abduraxmonov M.A. Qishloq xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. – 97 bet
7. Afanasev V.N., Markova A.I.. Statistika selskogo xozyaystva. Ucheb. posobie. – M.: FiS, hisobot
8. Bashkatov B.I. Statistika selskogo xozyaystva. Kurs leksiy. Kurs leksiy. – M.: EKMOS, 2014, 128-137 s
9. X.Nabiyev, D.X. Nabiyev. Axmedova M.Sh. Sanoat statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 164 bet.
10. N.M. Xarchenko. Ekonomicheskaya statistika. Uchebnik. – M.: Dashkov i K, 2010. – 368 str.
11. Mikroekonomicheskaya statistika. Uchebnik. Pod red. S.D.Ilenkovoy. – M.: INFRA-M, 2004. – 544 str.

Internet saytlari.

1. www.economy.gov.ru
2. www.uza.uz
3. www.uzland.uz
4. www.stability.uz
5. www.wikipedia.org/
6. Corresponding author: maryann.feldman@unc.edu, University of North Carolina, Chapel Hill, NC 27514;
7. University of North Carolina, Chapel Hill (thadji01@email.unc.edu); London School of Economics (t.e.kemeny@lse.ac.uk);
8. University of North Carolina, Chapel Hill (llanahan@email.unc.edu)
9. www.wikipedia.org/

2-amaliy mashg'ulot: Agrobiznes faoliyatini boshqarishda mehnat resurslari rolini statistik o'rganish

Dars shakli: Debat usuli. Ishning maqsadimehnat resurslarining shakllanishi, uning huquqiy muhofazasi, himoyasini ta'minlash va boshqarish borasida muammolarni ilgari surish va muhokama etish. Bunda ilmiy texnika ishlanmalarini tijoratlashtirish, ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalashdagi to'siqlar borasida debat uyushtiriladi.

Quyidagi masalalar o'rtaga tashlanadi:

- Agrobiznes faoliyatida mehnat resurslari va uni statistik o'rganish ahamiyati.
- Agrobiznes faoliyatida band bo'lgan mehnat resurslari ko'rsatkichlari.
- Agrobiznes faoliyatida xodimlar harakati ko'rsatkichlari.
- Zamonaviy innovatsion strategiyalar va innovatsiyalar marketingi.

Nazorat savollari: mehnat resurslari, xodimlar xarakati, ish vaqti fondi, mehnat unumdorligi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //”Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521).
2. Rangaswamy, R. Specification of a Textbook of Agricultural Statistics (English) 2nd Edition. // Indian, hisobot yar.
3. Agriculture, forestry and fishery statistics — 2014 edition. Luxembourg: Publications Office of the European Union, o‘tgan. Marcel Jortay Director, Sectoral and Regional Statistics
4. Ayubjonov A.H., Mamatqulov B.X., Sayfullaev S.N.. Qishloq xo‘jaligi statistikasi. O‘quv qo‘llanma. – T., 2012 y
5. Mamatqulov B.X. Qishloq xo‘jaligi statistikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, hisobot. – 176 bet.
6. Abduraxmonov M.A. Qishloq xo‘jaligi statistikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004. – 97 bet
7. Afanasev V.N., Markova A.I.. Statistika selskogo xozyaystva. Ucheb. posobie. – M.: FiS, hisobot
8. Bashkatov B.I. Statistika selskogo xozyaystva. Kurs leksiy. Kurs leksiy. – M.: EKMOS, 2014, 128-137 s
9. X.Nabiyev, D.X. Nabiyev. Axmedova M.Sh. Sanoat statistikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011. – 164 bet.
10. N.M. Xarchenko. Ekonomicheskaya statistika. Uchebnik. – M.: Dashkov i K, 2010. – 368 str.
11. Mikroekonomicheskaya statistika. Uchebnik. Pod red. S.D.Ilenkovoy. – M.: INFRA-M, 2004. – 544 str.

Internet saytlari.

1. www.economy.gov.ru
2. www.uza.uz
3. www.uzland.uz
4. www.stability.uz
5. www.wikipedia.org/
6. Corresponding author: maryann.feldman@unc.edu, University of North Carolina, Chapel Hill, NC 27514;
7. University of North Carolina, Chapel Hill (thadji01@email.unc.edu); London School of Economics (t.e.kemeny@lse.ac.uk);
8. University of North Carolina, Chapel Hill (llanahan@email.unc.edu)
9. www.wikipedia.org/

3-amaliy mashg‘ulot: Agrobiznes faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari va moliyaviy natijalari statistikasi.

Dars shakli: Keys - stadi.

Keys-stadi –Agrobiznes faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari va moliyaviy natijalari statistikasi.

Muhokama qilinadigan masalalar:

1. Ishlab chiqarish xarajatlarining statistik tahlili.
2. Ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasi indeksining mazmunini tushuntiring.
3. Ishlab chiqarish tarkibi va doimiy tarkibdagi mahsulot tannarxi indekslarini tushuntiring.
4. Mahsulot tannarxi umumiy indeksi formulasi asosida tannarxni statistik tahlil qiling.
5. Mahsulotlarni sotishdan olingan foydaning mazmunini va uni aniqlash usulini tushuntiring.
6. Yalpi foydani indeks usulidan foydalanib, statistik tahlil qiling.
7. Yalpi foydaning o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi va ularning ta'sirini qaysi indekslardan foydalanib, aniqlash mumkin.
8. Rentabellik deb nimaga aytiladi, uning mazmunini tushuntiring.

Nazorat savollari: Mahsulot tannarxi. Mahsulot bir birligining tannarxi. O'rtacha tannarx. Ishlab chiqarish xarajatlari. Mahsulotlarni sotishdan olingan foyda. Yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar. Rentabellik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521).
2. Rangaswamy, R. Specification of a Textbook of Agricultural Statistics (English) 2nd Edition. // Indian, hisobot yar.

V. KEYSLAR BANKI

BIRINCHI NAMUNA.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Mamatqulov B.X.

**“Agrobiznes statistikasi” o‘quv kursining
“Dehqonchilik statistikasi” mavzusi bo‘yicha tayyorlangan**

KEYS- STADI

Keys: «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligida bir turdagi ekinlar yalpi hosili va o‘rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o‘zgarishi qay darajada ta’sir qilganligini o‘rganish .

Toshkent – 2022

I. Keys

1. Fanning nomi: “Agrobiznes statistikasi .

Mavzuning nomi:“Dehqonchilik statistikasi ”mavzusiga moslangan keys-stadi.

2. Berilgan keysning maqsadi: Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini Xorazm viloyati Bog‘ot tumani «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo‘jaligining o‘tgan-hisobotyillardagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida hisoblaymiz;

Kutilayotgan natijalar: Fermer xo‘jaligi faoliyatini o‘rgangan holda, bilimni chuqurlashtirish, yalpi mahsulot yaratish uchun sarflangan mablag‘larni miqdorini aniqlash, yalpi mahsulot miqdorini, tarkibini, foydalanish darajasini va unga ta‘sir etuvchi omillarni tahlilini o‘rganib chiqish va berilgan muammolarni yechish. Keys muqaffaqiyatli yechish uchun talabalar **quyidagi natijalarga** erishishlari lozim: qishloq xo‘jaligida, turli mulk shakllaridagi xo‘jaliklarda, mintaqalarda yalpi mahsulot miqdorini, ularning tarkibi va xolatini, ularning xarakterini aniqlash, yalpi mahsulotga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash va iqtisodiy samaradorligini taxlil etish.

3. Mazkur keys institutsional tizimning real faoliyatasosida ishlab chiqilgan;

4. Keysda ishlatilgan ma‘lumotlar manbai quyidagilardan iborat: Xorazm viloyati Bog‘ot tumani «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo‘jaligining o‘tgan-hisobot yildagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida, ushbu korxonaning nizomi, Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligining statistik ma‘lumotlari.

5. Mazkur keys dala tadqiqotlari asosida syujetli toifasiga kiradi. Holat birlashmaning tahliliy ko‘rsatkichlari asosida tuzilgan. Keysning ob‘ekti bo‘lib: Xorazm viloyati Bog‘ot tumani «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra” fermer xo‘jaligining Xorazm viloyati Bog‘ot tumani «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra” fermer xo‘jaligining hisoblanadi. Ushbu keys ma‘lumotlar va dalillar asosida ishlab chiqilgan. U tuzilmaviy va katta hajmdagi keys – stadi hisoblanadi.

6. Didaktik maqsadlarga ko‘ra keys – tahlillarni o‘rgatish va baholash hisoblanadi. Shu sababdan, keys muammosining shakllanishi va tuzilishi uning masalasining yechimida algoritm va tahlil asosida ishlab chiqilgan. Gologramma sifatida ba‘zi ma‘lumotlar nazariy jihatdan berilgan bo‘lib, qo‘shimcha axborotlar muammoli holatlarni amaliy mashg‘ulotlarda o‘z yechimlariga ega bo‘ladi.

Keysning afzalliklariga quyidagilar kiradi: O‘quv darsining keys – texnologiya o‘qitish bo‘yicha, talabalarning o‘zi tashkil etgan ish faoliyatining ta‘minlovchi va uning natijaviy bahosini belgilovchi “Holatliy tahlil varaqasi” mavjud.

7. Ushbu keys – “Mehnat statistikasi”, “Ikroiqtisodiy statistika va MHT”, fanlarining mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

KIRISH

Respublikamiz hukumatining faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash siyosati hozirgi vaqtda, ayniqsa, qishloq joylarda iqtisodiy infrastrukturani ishbilarmon tadbirkorlar tomonidan takomillashtirish va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

Ko'p xarajatlar talab qilinishiga qaramay, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish tadbirkorlar oldida turgan dolzarb vazifalardan eng asosiysi hisoblanadi.

Quyidagi ma'lumotda Xorazm viloyati Bog'ot tumani «Quramboi bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligining ish faoliyati haqida asosiy tushunchalar, dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibini va foydalanish darajasi haqida va boshqa ma'lumotlar berilgan.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish ayrim turlari naturada, umumiy hajm va tarkibi pul qiymatida hisobga olinadi, chunki asosiy foydalarni pul qiymatida hisoblash shu ho'jalikda asosiy fondlarni yaratish uchun sarflangan mablag'larni miqdori, shuningdek, asosiy fondlarning yetishtirilgan mahsulotlarga o'tgan qiymatini aniqlash imkonini beradi. Natijada dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining eng asosiy natijaviy ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Mazkur keysda ushbu fermer xo'jaligining hisoblangan har bir ko'rsatkichi mustaqil iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, fermer xo'jaligida yalpi hosilni yaratish uchun sarflangan mablag' miqdorini aniqlash imkonini beradi. Qishloq xo'jalik korxonalarining buxgalteriya hisobida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish boshlang'ich qiymatida hisobga olinadi. Shu bilan birga dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish turli vaqtlarda hosil qilinadi, demak ularning baholari ham turlicha buladi. Shu sababli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining eng asosiy natijaviy ko'rsatkichlari ekin turlari bo'yicha yalpi hosil va hosildorlik tushunchasi, ularni ishlab chiqarishning turli davrlarida aniqlash usullarini, turli ekinlarni hosildorlikni nobud bo'lish darajasi va uni sabablari, nobud bo'lgan hosil miqdorini hisoblashni, yalpi hosil miqdori va unga ta'sir qiluvchi omillarni, hosildorlik darajasi dinamikasini o'rganib o'zgarish xususiyatlari, ya'ni qonuniyatni aniqlash va uzoq muddatda tabiiy omillarni ta'sirini o'rganadi.

Keysda masalaning yechimi orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- mazkur mavzu bo'yicha bilimni chuqurlashtirish;
- individual va guruhlarda muammoning yechimi tahlilini va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ishlab chiqish;
- mantiqiy fikr yuritishni jonlantirish;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'quv ma'lumotlarni o'rganish darajasini tekshirish;
- yalpi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish yo'llari topish.

000000000000000000000000

1. «Quramboi bobo nabirasi Tohir-Zuhra» fermer xo'jaligiga iqtisodiy tavsifnoma

Tashkilotning manzili:

Fermer xo‘jaligi Xorazm viloyati, bog‘ot tumanida joylashgan bo‘lib, 1998 yildan boshlab faoliyat yuritadi.

Tashkilotning to‘liq nomlanishi:

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra» fermer xo‘jaligi.

Tashkilotning tashkil etilgan yili:

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani Hokimining 1998 yil 10 martdagi 234-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

Tashkilotning shakli:

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra fermer xo‘jaligi» yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, tumani Hokimining 1997yil 22 martdagi 70-sonli qaroriga asosan ro‘yxatga olingan.

Tashkilotning faoliyat turi:

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra fermer xo‘jaligi» quyidagi mahsulot turlari yetishtirish bilan shug‘ullanadi:

1. Paxta
2. Bug‘doy
3. Sholi

Tashkilotning maqsad va vazifalari:

- ishlab chiqarishni yanada kuchaytirish va halqaro miqyosda kengaytirish;
- shahar aholisi va mahalliy aholini o‘zining sifatli mahsulotlari bilan ta‘minlash;
- joylarda savdo shaxobchalarini tashkil etish va qulay sharoitda aholiga keng xizmat ko‘rsatish;
- tabiiy dehqonchilik mahsulotlarini ko‘paytirish va daromad olish.

2. «QURAMBOY BOBO NABIRASI TOHIR-ZUHRA» FERMER XO‘JALIGINING BOSHQARUV TIZIMI HAQIDA MA‘LUMOT


Tashkilotning boshqaruv tuzilishi:

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, davlat tomonidan boshqarilmaydi. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligi xususiy bo‘lganligi sababli, «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra» fermer xo‘jaligi 2000 yilda tasdiqlangan va Xorazm viloyati Bog‘ot tumani Hokimining 2000 yil 10 mayidagi 305-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tgan nizomining V bandiga asosan ish yuritiladi. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligi nizomining V-17 bandida yozilishicha, «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligi 18 (o‘n sakkiz) yoshga to‘lgan, qishloq xo‘jaligida tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo‘lgan, muomalaga layoqatli xo‘jalik a‘zolaridan biri rahbarlik qilishi mumkin. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligi rahbariyatidan tashqari mahalliy ishsizlar sonini kamaytirish maqsadida «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligi yaqin atrofdagi mahallaning 32 nafardan ortiq a‘zosini xo‘jalikda mehnat qilishga jalb etgan. Olingan 10 nafardan ortiq ishchi kuchini malakasini oshirish uchun kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirilgan bo‘lib «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligi

iqtisodiyotini ko‘tarish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardosh va yuqori sifatli bo‘lishini ta’minlash vazifasi birlashma zimmasiga olingan.

Chizma №1

Tashkilotning boshqaruv shakli:
**Xorazm viloyati Bog‘ot tumani «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra »
fermer xo‘jaligining boshqaruv shakli:**



3. Xorazm viloyati Bog‘ot tumani «Quramboylar bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligining dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish haqida ma‘lumot

3.1. Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini o‘rganish.

Qishloq xo‘jaligi statistikasida dehqonchilikda ma‘lum ekin maydonidan olingan butun mahsulot yalpi hosil deb ataladi. Ma‘lum bir turdagi ekinning o‘rta hisobda bir gektar maydonga to‘g‘ri keladigan mahsuloti miqdori esa hosildorlik deb ataladi.

Ekinlarning yalpi hosilini (sentner yoki tonna o‘lchovida) ekin maydonini kengaytirish hisobiga ekstensiv ravishda yoki ekinning hosildorligini oshirish – ekin maydonidan intensiv ravishda foydalanish yo‘li bilan ko‘paytirish mumkin. Ma‘lumki, ekin maydonlarini uzluksiz kengaytirib bo‘lmaydi. Qo‘riq yerlar ochish, botqoqlarni quritish va boshqalar bechegara ish emas. Shuning uchun ekinlarning yalpi hosilini hosildorlikni oshirish hisobiga ko‘paytirish eng muhim vazifadir.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosil va hosildorligi dehqonchilik tarmog‘ininggina emas, balki, umuman qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish darajasining ko‘rsatkichidir.

Ekinlarning hosili va hosildorligi dehqonchilikning har tomonlama rivojlanishiga bog‘liq. Xo‘jalikning tabiiy va iqtisodiy qulay sharoitidan tashqari uning tashkiliy ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, aytaylik, yerning samaradorligi oshirilsa, melioratsiya holati yaxshi bo‘lsa, mineral va mahalliy o‘g‘itlardan to‘g‘ri foydalanilsa, texnika o‘z vaqtida qo‘llanilsa, ishda ilg‘orlarning tajribalariga, ilm-fan muvaffaqiyatlariga amal qilinsa, ekinlarning hosildorligi oshadi. Demak, yalpi hosil ham ko‘payadi, xalqimizning qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabini yanada ko‘proq qondirish, sanoatni xomashyo bilan yanada yaxshiroq ta‘minlash imkoniyati kengayadi. Hosildorlikni oshirish uchun paxta-beda almashlab ekishni o‘zlashtirish nihoyasiga yetkazilishi, paxtaning kasalliklarga bardosh beradigan serhosil navlarini yaratish, g‘o‘zani sug‘orish va hosilni terish mexanizatsiyasi darajasi oshirilishi zarur.

3.2. Xorazm viloyati Bog‘ot tumani «Quramboylar bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligining. qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining eng asosiy natijaviy ko‘rsatkichlariga ta‘sir etuvchi omillarni statistik tahlili

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani «Quramboylar bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligida dehqonchilik mahsulotlari bo‘yicha yalpi hosilni o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillar bo‘yicha omilli taxlil qilinishi lozim.

«Quramboylar bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligida don mahsulotlarining ekin maydoni va hosildorligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar berilagan.

3.2.1-jadval

№	Ekin turlari	O‘tgan yil		Hisobot yil	
		maydoni, ga	hosildorlik, s/ga	maydoni, ga	hosildorlik, s/ga
		M_0	X_0	M_1	X_1
1	Bug‘doy	35	36,4	36	37,0
2	Sholi	40	28,2	43	28,5
3	Makka don uchun	55	28	45	34
Hammasi		130	---	124	---

«Quramboylar bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo‘jaligida bir turdagi ekinlar yalpi hosili va o‘rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibi va hosildorligi

o'zgarishi ta'sir qiladi. Bu ta'sirni aniqlashda iqtisodiy indeks usulidan foydalaniladi. Ma'lumki, yalpi hosil, ekin maydoni tarkibi va hosildorlikni umumiy indeksi bir turdagi ekin turlari bo'yicha hisoblanadi.

4. Talabalarga beriladigan mulohaza uchun savollar

1. Hosil va hosildorlik ko'rsatkichlari deb nimaga aytiladi?
2. Hosildorlik ko'rsatkichlari va ularni aniqlash.
3. Yalpi hosil dinamikasining statistik tahlili.
4. Yalpi hosil o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning indekslari.
5. Ekin maydonlari strukturasi indeksini aniqlang va mazmunini tushuntiring.

5. Talabalar uchun uslubiy qo'llanmalar

Muammo:

«Qoramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligida bir turdagi ekinlar yalpi hosili va o'rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini o'rganish .

Vazifalar:

Jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanilsin:

1. Hosildorlikning alohida indekslari.
2. Hosildorlikning umumiy indeksi.
3. O'rtacha hosildorlik indeksi.
4. O'rtacha hosildorlikning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
 - a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.
 - b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.
5. Yalpi hosilning umumiy indeksi.
6. Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
 - a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.
 - b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.

Yechish algoritmi:

Bir turdagi ekinlar yalpi hosili va o'rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibi va hosildorligi o'zgarishi ta'sir qiladi. Bu ta'sirni aniqlashda iqtisodiy indeks usulidan foydalaniladi. Ma'lumki, yalpi hosil, ekin maydoni tarkibi va hosildorlikni umumiy in-deksi bir turdagi ekin turlari bo'yicha hisoblanadi. Masalan, donli ekinlar, sabzavot va yem-xashak ekinlari bo'yicha.

Masalani shartida donli ekinlar maydoni va hosildorligi haqida ma'lumotlar berilgan. Donli ekinlarni hosil va hosildorligi o'zgari-shi haqidagi ma'lumotlarni tahlil etishda iqtisodiy indeks usulidan foydalanamiz.

Masalani birinchi shartida hosildorlikning alohida indeksini hisoblash so'ralgan. Buning uchun har bir ekin turi bo'yicha hosildorlik-ni o'zgarishi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{Kuzgi bug'doy: } i = \frac{X_1}{X_0}$$

$$\text{Sholi: } i = \frac{X_1}{X_0}$$

$$\text{Makka don uchun: } i = \frac{X_1}{X_0}$$

Masalani ikkinchi shartida hosildorlikning umumiy indeksini hisoblash so'ralgan. Buni hisoblashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$I = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_1}$$

$$I = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_1}$$

Masalani uchinchi shartida o'rtacha hosildorlik indeksini hisoblash so'ralgan. Buni bajarish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$I = \frac{\bar{X}_1}{\bar{X}_0} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} : \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

$$I = \frac{\bar{X}_1}{\bar{X}_0} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} : \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

O'rtacha hosildorlikni mutlaq o'zgarishini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_x = \bar{X}_1 - \bar{X}_0$$

$$\Delta_x = \bar{X}_1 - \bar{X}_0$$

Shu jumladan:

a) O'rtacha hosildorlikni, hosildorlik o'zgarishi hisobiga o'zgarishini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$\Delta_x = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1}$$

$$\Delta_x = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1}$$

b) O'rtacha hosildorlikni, ekin maydonlari tarkibi o'zgarishi hisobiga o'zgarishini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$\Delta_x = \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

$$\Delta_x = \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

Yalpi hosilning umumiy indeksini quyidagi formuladan foydalanib hisoblaymiz:

$$I_{yx} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_0}$$

$$I_{yx} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_0}$$

Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishini quyidagi formuladan foydalanib hisoblaymiz:

$$\Delta_{yx} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_0$$

$$\Delta_{yx} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_0$$

Shu jumladan:

a) Yalpi hosilni hosildorlik o'zgarishi hisobiga o'zgarishini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_{yxM} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_1$$

$$\Delta_{yxM} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_1.$$

b) Yalpi hosilni, ekin maydoni tarkibi o'zgarishi hisobiga o'zgarishini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_{yxM} = \sum X_0 M_1 - \sum X_0 M_0$$

$$\Delta_{yxM} = \sum X_0 M_1 - \sum X_0 M_0$$

Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida xulosa yoziladi.

Holatiy tahlilning varaqasi

Tahlil bosqichining nomi	Tahlil bosqichining mazmuni	Tahlil bosqichi	Baholash mezonlari
1. Holatiy tahlil	1. Holatning aniq ko'rinishi va masalaning hal etilishi, yechilishi uchun aniq ma'lumotlar. 2. Holatning eng muhim hususiyatlari: Nima bo'lmoqda? Holatning natijalarini shakllanishi qanday?		1 – 0.5 ball 2 – 1 ball
2. Muammoning shakllanishi	Muammoda aks ettiruvchi asosiy hususiyatlar hisoblansin: Hosildorlikning alohida indeklari. 2.Hosildorlikning umumiy indeksi. 3.O'rtacha hosildorlik indeksi. 4.O'rtacha hosildorlikning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan: a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga. b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga. 5.Yalpi hosilning umumiy indeksi. 6.Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan: a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga. b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.		A) – 0.5 ball B) – 0.5 ball V) – 1 ball
3. Holatning ishtirokchilarini aniqlash	«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligining iqtisodiy tavsifnomasi, ish faoliyati va tarkibi, boshqarish tizimi		1 ball
4. Omilli tahlil asosida holatning	«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligida bir turdagi ekinlar yalpi hosili va o'rtacha		2 ball

o'rganish	hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini o'rganish .		
5. Yechimni ishlab chiqish	Masalaning yechimini hal qilmoq va ishlab chiqish, maxsulotga ta'sir omillar salbiy va ijobiy ta'sirini aniqlab tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqish.		2 ball

6. O'quv - uslubiy materiallar

Ma'lumki, ekinlarning hosil va hosildorligi hosil tamomila yig'ib olingandan so'ng aniqlanadi. Lekin statistika fani hosil hajmi va hosildorlik miqdorini terim oldidan ham har bir ekinning o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olib belgilaydi. Hosil va hosildorlikni aniqlash-ning uch kategoriyasi bor:

- 1) o'sib turgan ekinning ko'rinishiga qarab belgilash;
- 2) terim oldidagi holatiga qarab belgilash;

3) haqiqiy yig'ilgan va omborga tushgan hosil. O'sib turgan ekinning holatiga qarab hosil belgilash, deganda ekin yetilishidan ancha oldin o'sish davrlarida, aytaylik, paxta besh quloq bo'lganida yoki ko'sak olganda, don esa boshqoq tortganida yoppa o'simliklarning holatiga qarab kutilgan hosil va hosildorlikni aniqlash ko'zda tutiladi.

Bu ishni hosilotchi va bo'lim boshlig'i ko'z bilan chamalab «yaxshi», «o'rtacha», «yomon» baho bilan yoki 1, 2, 3, 4, 5 ball bahosi bilan belgilaydilar.

Ekinning terim oldidagi holatiga qarab aniqlash, deganda pishib yetilgan, lekin hali terilmagan, omborga tushmagan hosil nazarda tutiladi.

O'simlikning bu holatdagi hosil va hosildorligi:

a) sub'ektiv metod bilan, ya'ni hosilni yig'ishdan oldin maydonni diqqat bilan qarab chiqib hosil va hosildorlik ko'z bilan chamalab aniqlanadi;

b) ekin pishib, terimga va o'rishga tayyor bo'lgan vaqtda kichik bir joy, aytaylik, 1 m² joy ajratib, undagi hosil terib olinadi va tarozida tortib ko'rib qancha chiqsa, shu son mingga ko'paytiriladi va shu bilan 1 ga maydondagi hosildorlik aniqlanadi. Yalpi hosilni aniqlash uchun 1 ga ning hosili shu ekin ekilgan umumiy maydon hajmiga ko'paytiriladi. Bu ob'ektiv metoddir. Hosilning tamomila yig'ib olinmasdan oldin terim boshida aniqlanishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, sotish, qayta ishlash, tashib olish va h. k. larni rejalashtirish uchun zarurdir;

v) haqiqiy yig'ilgan (omborga tushgan) hosil va hosildorlik ko'rsatkichi qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati natijalarini ifodalaydi.

Tabiiy, hosil va hosildorlikning avvalgi taxminiy hisoblari bilan yig'im-terim tomonidan qilingan hisoblar o'rtasida tafovut bo'ladi.

Ko'rsatkichlar orasidagi tafovut quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$W_x = W_t - P,$$

W_x – haqiqiy yig'ilgan hosil.

W_t – hosilni terimga tayyor bo'lgan holda aniqlash ko'rsatkichi.

R – yig'im-terim vaqtda hosilning yo'qotilgan (nobud bo'lgan) qismi.

Hozir statistika omborga tushgan hosilga qarab hisobot yuritadi. Negaki, taxminiy belgilash usuli o'zini oqlamadi, keyin yig'im-terim davrida nobudgarchilik uchun xo'jaliklardan javobgarlik ham talab qilinmas, aslida nobudgarchilik oldindan

belgilanib qo'yilar edi. Endilikda haqiqiy hosil va hosildorlik ko'rsatkichi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Hosilni aniqlash paytida ayrim ekinlarning ba'zi xususiyatlarini nazardan qochirmaslik kerak. Masalan, doni uchun ekilgan jo'xori don ekini qatorida hisob qilinsa, silos va ko'k xashak uchun ekilgan jo'xori-xashak qatorida hisob qilinadi, jo'xori hosili yig'ib olingandan keyin so'ta holidagi tortib hisoblanadi; quruq donga chiqib hisob qilish uchun so'tadan ajratilgan donlarning haqiqiy og'irligi asos bo'ladi, donlarning bazis namligi (22%) chiqarib tashlanadi.

Sabzavot ekinlaridan shivit, kashnich, petrushka, rediska kabi ildiz mevalilarning faqat ochiq yerga ekilganlari hisobga olinadi, ko'chirib o'tkazilganlari va urug'lik uchun ekilganlari sabzavot mahsulotlari qatoriga kiritilmaydi, ular alohida hisoblanadi.

Shirkatlar va boshqa davlat xo'jaliklari qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'im-terim hisobi uchun yig'im-terim texnikalarida ishlovchi mexanizatorlarning tergan yoki o'rib olgan mahsuloti to'g'risidagi kundalik hisobot varaqalari, mahsulot qabul qilinganligi haqidagi aktlar va shu kabi boshqa boshlang'ich hujjatlar asos qilib olinadi. Yig'im-terim tamom bo'lganidan keyin shirkat va boshqa davlat xo'jaliklari mazkur hujjatlar asosida ekinlarning hosili haqida hisobot tuzadilar. Bu hisobotda ekin turlari bo'yicha olingan yalpi hosil va hosildorlik haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'ladi. Ma'lumki, ba'zi xo'jaliklar hisobot topshirish muddatigacha barcha hosilni yig'ib-terib ulgurmaydilar. U holda yig'ib, ulgurilmagan maydondagi hosilni hisob metodi bilan aniqlab, yig'ib olingan hosil miqdoriga qo'shib jami yalpi hosilni hisobotga yozadilar.

Tumanning ekin maydoni 12000ga teng bo'lib, shundan 1 noyabrgacha 10000 gektaridagi hosil yig'ib olinib, jami 250000 sentner mahsulot olingan. Mahsulotning barcha hosildorligi $250000:10000=25$ sentner bo'libdi. 2000 gektar maydondagi hosil hisobot muddatigacha yig'ilmay qolgan, o'tgan yili hisobot muddatiga qadar bir gektar moydondan 24 sentner mahsulot olingan edi. Hisobot muddatidan keyin esa bir gektarga to'g'ri kelgan hosil 21 sentner bo'ldi. Buning koeffitsienti (21:24) 0,875 s dir. Endi bu koeffitsient yordamida shu yili hisobot muddatidan so'ng hosil yig'ib olinadigan maydonning bir gektariga to'g'ri keladigan mahsulotni (hosildorligini) hisoblasak, $25 \times 0,875 = 21,9$ s bo'lar ekan. Hisobot muddatidan so'ng hosil yig'ib olinadigan 2000 ga maydonning jami mahsuli $(2000 \times 21,9) = 43800$ s bo'ladi. Demak, tumanning butun ekin maydonidan yig'ib olinadigan yalpi hosil $(250000 + 43800) = 293800$ s ni, o'rtacha hosildorlik esa $(293800:12000) = 24,48$ s ni tashkil qilgan ekan.

6. KEYSOLOGNING JAVOB VARIANTI

Donli ekinlarni hosil va hosildorligi o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni tahlil etishda iqtisodiy indeks usulidan foydalanamiz.

1. Hosildorlikning alohida indeksi bo'yicha har bir ekin turining hosildorligini o'zgarishi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{Bug'doy: } i = \frac{X_1}{X_0} = \frac{37}{36,4} = 1,016 \text{ yoki } 101,6 \%$$

$$\text{Sholi: } i = \frac{X_1}{X_0} = \frac{28,5}{28,2} = 1,010 \text{ yoki } 101,0 \%$$

$$\text{Makka don uchun: } i = \frac{X_1}{X_0} = \frac{34}{28} = 1,214 \text{ yoki } 121,4 \%$$

2. Hosildorlikning umumiy indeksini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$I = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_1}$$

$$I = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_1} = \frac{28,5 \cdot 43 + 37 \cdot 36 + 34 \cdot 45}{28,2 \cdot 43 + 36,4 \cdot 36 + 28 \cdot 45} = \frac{1226 + 1332 + 1530}{1213 + 1310 + 1260} = \frac{4088}{3783} = 1,081 \text{ yoki } 108,1 \%$$

3. O'rtacha hosildorlik indeksini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$I = \frac{\bar{X}_1}{\bar{X}_0} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} : \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

$$I = \frac{\bar{X}_1}{\bar{X}_0} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} : \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0} = \frac{4088}{124} : \frac{40 \cdot 28,2 + 35 \cdot 36,4 + 55 \cdot 28}{130} = \frac{4088}{124} : \frac{3942}{130} = 32,9 : 30,3 = 1,086 \text{ yoki } 108,6 \%$$

4. O'rtacha hosildorlikni mutlaq o'zgarishini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_x = \bar{X}_1 - \bar{X}_0$$

$$\Delta_x = \bar{X}_1 - \bar{X}_0 = 32,9 - 30,3 = 2,6 \text{ s/ga oshgan.}$$

Shu jumladan:

4.1. O'rtacha hosildorlikni, hosildorlik o'zgarishi hisobiga o'zgarishini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$\Delta_x = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1}$$

$$\Delta_x = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1} = \frac{4088}{124} - \frac{3783}{124} = 32,9 - 30,5 = 2,4 \text{ s/ga oshgan.}$$

4.2. O'rtacha hosildorlikni, ekin maydonlari tarkibi o'zgarishi hisobiga o'zgarishini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$\Delta_x = \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

$$\Delta_x = \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0} = \frac{3783}{124} - \frac{3942}{130} = 30,5 - 30,3 = 0,2 \text{ s/ga oshgan.}$$

5. Yalpi hosilning umumiy indeksini quyidagi formuladan foydalanib hisoblaymiz:

$$I_{yx} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_0}$$

$$I_{yx} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_0} = \frac{4088}{3942} = 1,037 \text{ yoki } 103,7 \%$$

6. Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishini quyidagi formuladan foydalanib hisoblaymiz:

$$\Delta_{yx} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_0$$

$$\Delta_{yx} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_0 = 4088 - 3942 = 146 \text{ sentner.}$$

Shu jumladan:

6.1. Yalpi hosilni hosildorlik o'zgarishi hisobiga o'zgarishini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_{yxM} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_1$$

$$\Delta_{yxM} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_1 = 4088 - 3783 = 305 \text{ sentner.}$$

6.2. Yalpi hosilni, ekin maydoni tarkibi o'zgarishi hisobiga o'zgarishini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_{yxM} = \sum X_0 M_1 - \sum X_0 M_0$$

$$\Delta_{yxM} = \sum X_0 M_1 - \sum X_0 M_0 = 3783 - 3942 = -159 \text{ sentner.}$$

Xulosa.

Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida «Quramboylar bobo nabirasi Tohir-Zuhra» fermer xo'jaligidahisobot yil o'tganyilga nisbatan don ishlab chiqarishda ma'lum o'zgarishlar bo'lgan. Hosildorlik bug'doyda 1,6%, sholi bo'yicha 1 % ga , makka doni 21,4% ga oshgan.

«Quramboylar bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligida ekilgan donli ekinlarni umumiy hosildorligi 8,1% ga oshgan, shuning hisobiga o'rtacha hosildorlik indeksi 8,6% ga oshgan, chunki o'rtacha hosildorlikni mutlaq qiymati 2,6 s/ga ga oshgan. Bu oshishni omillari quyidagilar: hosildorlikni o'zgarishi hisobiga o'rtacha hosil-dorlik 2,4 s/ga oshgan, ekin maydoni tarkibi o'zgarishi hisobiga o'rtacha hosildorlik 0,2 s/ga oshgan. Natijada o'rtacha hosildorlikni umumiy mutlaq o'zgarishi 2,4s/ga+ 0,2s/ga =2,6 s/ga bo'lgan.

«Quramboylar bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligida yig'ib olingan yalpi hosil 3,7% ga yoki 146 sentnerga ko'paygan. Yalpi hosilni ko'payish omillari quyidagilar: hosildorlikni o'zgarishi hisobiga yalpi hosil 305 sentnerga oshgan, ekin maydoni tarkibini o'zgarishi hisobiga yalpi hosil -159 sentnerga kamaygan. Natijada yalpi hosil 305s+(-159s)= 146 s ga oshgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini to'la va mukammal tarzda aniqlash uchun to'la imkoniyat mavjud emas. Chunki fermer xo'jaliklarida ko'pgina mehnat va moddiy xarajatlar to'la hisobga olinmaydi. Shuning uchun ham fermer xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini boshqa xo'jaliklar bilan solishtirganda yerdan foydalanish samaradorligi, ya'ni bir gektar yoki bir ball-gektar hisobiga olingan mahsulot ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiq.

8. Amaliy mashg'ulotlarda muammoli holatlarni yechish bo'yicha (keys o'qitish texnologiyasi)

Mavzu	Tovar assortimenti strategiyasini ishlab chiqish
<i>Talabalar soni: 25 –30</i>	<i>Vahti 4 soat</i>
<i>O'qitish shakli</i>	<i>Amaliy mashg'ulotda muammoli holatni yechish orqali bilimni chuqurlashtirish.</i>
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Keys – stadiga kirish va nazariy jixatdan yoritib berish. 2. Bilimni chuqurlashtirishning va muammoning dolzarbligi. 3. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligida bir turdagi ekinlar yalpi hosili va o'rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini o'rganish . 4. Muammoning shakllanishi va uni yechish yo'llari. 5. Keys – stadini guruhlarda yechish. 6. Diskussiya orqali muammoli holatni yechish g'oyalari ko'rib chiqish. 7. Eng muqobil variantini tanlash va natijalarni prezentatsiya qilish. 8. Guruhlarning ishlash faoliyatini va maqsadga erishilganlik natijalarini baholash va xulosa chiqarish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	bir turdagi ekinlar yalpi hosili va o'rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi ta'sirini aniqlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Muammoli holatning hususiyatlarini tavsiflab va tasniflab beradi: <ul style="list-style-type: none"> • Keysda birlashmaning faoliyati va asosiy vositalar holati bilan tanishtiradi va tahlil qiladi; • Muammoni ajratish va uni aniqlab, yechish ketma - ketligini ishlab chiqishni o'rgatadi; • Keysda muammoning ma'lumotlarini boshqaruv va ishlab chiqarishni tizimini yaxshilash uchun hisob - kitoblar o'tkazadilar, hamda yakuniy xulosalar chiqaradilar; 	<i>O'quv faoliyatning natijalari:</i> - Fermer xo'jaligining faoliyati va holatini o'rgangan holda muammoni aniqlaydi va fermer xo'jaligiga taaluqli muammolarni tavsiflab beradilar; -Muammoli holatning ko'nikmalarini va uning shaklidagi kichik muammolarning iqtisodiy asoslangan yechimlarini ishlab topmoq; Fermer xo'jaligining faoliyatini hisobga olgan holda muammoni yechilishning ketma – ketligini aniqlaydi; - Iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan ishlash yo'llarini, bashorat qilish, statistik ma'lumotlar tahlili bilan ishlab chiqarish yo'llarini optimal variantini tanlaydi va mazkur fermer xo'jaligining xo'jaligida bir turdagi ekinlar yalpi hosili va o'rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini aniqlaydi;
<i>O'qitish uslubi</i>	Keys-stadi uslubi savol-javob, muammolarni yechish
<i>O'qitish shakli</i>	Amaliy mashg'ulotda frontal va individual ishlash, guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, o'quv daftarlari, namoyon materiallar (ma'ruzachi tomonidan prezentatsiya-slayd), lazer proektor, kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar (sxemalar, rasmlar, jadvallar),
<i>O'qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	mustaqil o'rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Ishning bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Tayyorlov qismi (10 min)	<p>1.1. Mazkur keysning mutaxassislik yo'nalishiga ta'sirini tushuntiradi va tanishtiradi;</p> <p>1.2. Mashg'ulotning nomini, o'tkazish jarayonini, rejalashtirayotgan maqsad va natijalarni e'lon qiladi.</p> <p>1.3. O'rganib chiqish uchun keysga taaluqli qo'llanmalar va tarqatma materiallar tarqatadi.</p> <p>1.4. Taklif etilgan «O'orakhl» birlashmasining faoliyati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.5. Mustaqil ishlash uchun, holatli tahlil varaqasini tarqatadi.</p> <p>1.6. Guruhlarda ishlash instruksiyasini tushuntirib o'tadi.</p>	Tinglaydilar va yozib oladilar
2-bosqich Asosiy qism (130 min)	<p>2.1. Nazariy va amaliy tomondan taqqoslangan yangi materialni o'rganishning tashkil qiladi. Buning uchun qisqa tarzda birlashmalarda xo'jaligida bir turdagi ekinlar yalpi hosili va o'rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini o'rganish hisoblash borasida, qilinadigan ishlar haqida nazariy jihatdan gapirib beradi. Bu esa amaliy mashg'ulotning rejasiga asosanib, ekranda jadvallar, chizmalar, rasmlar tariqasida ko'rsatiladiva u sharhlanadi.</p> <p>2.2. Fermer xo'jaligining holati bilan muzokarani tashkillashtiradi va quyidagi mashg'ulotning asosiy savollariga amaliyot bilan bog'lagan holda javob beradi:</p> <p>1. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligi bu darajaga erishish sabablarini ayting va u marketingning qaysi elementlaridan doimiy holda foydalanadi?</p> <p>2. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligi maqsadli segmentlari haqida gapirib bering.</p> <p>3. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligi shakllanayotganda qanday muammolarga duch kelgan?</p> <p>2.3. Talabalarni guruhlarga bo'ladi va guruhlarda ishlash jarayonini eslatadi. Keys bilan ishlash uchun individual yoki guruhlarda ishlash jarayoni uchun topshiriqlar beradi.(1-ilova Jamoa ishlab chiqqan holatli tahlil varaqasini to'ldiradilar, muqobil g'oyalarni tanlab oladilar va baholaydilar.</p> <p>2.4. O'quv faoliyatiga maslahat beradi va yo'naltiradi. Individual va jamoa ish faoliyatini "holatli tahlil varaqasini" tekshiradi va baqolaydi.</p> <p>2.5. Prezentsiyani tashkillashtiradi, muhokama qiladi va o'zaro baqolaydi.</p> <p>2.6. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligining faoliyati to'g'risida savollar berishni tavsiya etadi. (Natijaviy holda «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligi vakilining javoblarini mashg'ulotning rejasiga mos ravishda amaliyotga bog'langanligini kengaytirib xulosa qiladi. Shu boisdan «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligining imkoniyatlari qanday va kelajakda faqat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadimi? yo'llarini ko'rsatadi</p> <p>2.7. Javoblarni tekshirib, baho beradi va muhokama qiladi. Muammoning tahlili va xolatning yechimiga alohida e'tibor beradi. 2-ilova)</p> <p>2.8. Keysning o'z yechim variantini e'lon qiladi va namoyish qiladi.</p>	<p>Eshitadilar, konspektlarda qisqa tarzda yozib boradilar.</p> <p>Savollarjavob berishadi va daftarlariga yozib boradilar. Savollarni aniqlaydilar, muhokama qiladilar va tushunmagan joylarini so'raydilar.</p> <p>O'quv topshiriqlarni bajaradilar.</p> <p>Guruhlar natijalarning prezentsiya qiladilar. Diskussiyada qatnashadilar, savollar beradilar va o'zaro baqolaydilar.</p>
3-yakuniy bosqich (20 min)	<p>3.1. Natijalarga yakuniy xulosalar qiladi, talabalarining e'tiborini asosiy nuqtalarga qaratadilar, xulosalar qiladilar va baqolaydilar.</p> <p>3.2. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligining faoliyatini tahlil qilish talabalarining yo'nalishlariga va bo'lajak kasblariga ta'sirini anglatib o'tadi.</p> <p>3.3. Mustaqil ta'lim uchun vazifa beradi: Amaliyotni nazariyaga bog'lagan holda biron-bir korxonani misol qiling va bu seminar darsida muhokama qilinishini aytib o'tadi.</p>	

1-ilova

Keys bilan ishlash uchun guruhlarda ishlash jarayoni uchun topshiriqlar beriladi:

1-gurux.

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi «Umid» fermer xo'jaligida don mahsulotlarining ekin maydoni va hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilagan.

№	Ekin turlari	o'tgan yili		hisobot yili	
		maydoni, ga	hosildorlik, s/ga	maydoni, ga	hosildorlik, s/ga
		M_0	X_0	M_1	X_1
1	Kuzgi bug'doy	510	43	536	39
2	Bahorgi bug'doy	154	13	186	16
3	Bahorgi arpa	67	15	52	19
4	No'xat	17	13	13	9
5	Sholi	96	42	112	46
6	Makka don uchun	38	28	29	34
Hammasi					

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanilsin:

1. Hosildorlikning alohida indeklari.

2. Hosildorlikning umumiy indeksi.

3. O'rtacha hosildorlik indeksi.

4. O'rtacha hosildorlikning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:

a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.

b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.

5. Yalpi hosilning umumiy indeksi.

6. Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:

a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.

b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.

v) Hosildorlik va ekin maydonlari tarkibini o'zgarishini birgalikdagi ta'siri hisobiga.

Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida xulosa yozing.

2-guruh.

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi «Ibodulla-ota» fermer xo'jaligida don mahsulotlarining ekin maydoni va hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilagan.

№	Ekin turlari	o'tgan yili		hisobot yili	
		maydoni, ga	hosildorlik, s/ga	maydoni, ga	hosildorlik, s/ga
		M_0	X_0	M_1	X_1
1	Kuzgi bug'doy	245	39	265	34
2	Bahorgi bug'doy	64	11	66	12
3	Bahorgi arpa	42	17	34	19
4	No'xat	14	16	15	15
5	Sholi	46	39	56	42
6	Makka don uchun	38	35	42	29
Hammasi					

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanilsin:

1. Hosildorlikning alohida indeklari.

2. Hosildorlikning umumiy indeksi.

3. O'rtacha hosildorlik indeksi.

4. O'rtacha hosildorlikning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:

a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.

b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.

5. Yalpi hosilning umumiy indeksi.

6. Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:

a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.

b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.

v) Hosildorlik va ekin maydonlari tarkibini o'zgarishini birgalikdagi ta'siri hisobiga.

Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida xulosa yozing.

3-guruh.

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi «Gulbog'» fermer xo'jaligida don mahsulotlarining ekin maydoni va hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

№	Ekin turlari	o'tgan yili		hisobot yili	
		maydoni, ga	hosildorlik, s/ga	maydoni, ga	hosildorlik, s/ga
		M_0	X_0	M_1	X_1
1	Kuzgi bug'doy	265	38	270	39
2	Bahorgi bug'doy	74	12	66	13
3	Bahorgi arpa	50	15	42	16
4	No'xat	8	14	10	15
5	Sholi	56	36	64	34
6	Makka don uchun	28	32	32	29
Hammasi					

Jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanilsin:

1. Hosildorlikning alohida indeksleri.

2. Hosildorlikning umumiy indeksi.

3. O'rtacha hosildorlik indeksi.

4. O'rtacha hosildorlikning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:

a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.

b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.

5. Yalpi hosilning umumiy indeksi.

6. Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:

a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.

b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.

v) Hosildorlik va ekin maydonlari tarkibini o'zgarishini birgalikdagi ta'siri hisobiga.

Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida xulosa yozing.

4-gurux.

Toshkent viloyati Qibray tumanidagi «T.Normuxammedov» fermer xo'jaligida don mahsulotlarining ekin maydoni va hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

№	Ekin turlari	o'tgan yili		hisobot yili	
		maydoni, ga	hosildorlik, s/ga	maydoni, ga	hosildorlik, s/ga
		M_0	X_0	M_1	X_1
1	Kuzgi bug'doy	375	39	390	41
2	Bahorgi bug'doy	86	41	92	11
3	Bahorgi arpa	46	16	42	12
4	No'xat	16	18	14	16

5	Sholi	95	42	98	44
6	Makka don uchun	35	31	32	28
Hammasi					

Jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanilsin:

1. Hosildorlikning alohida indeksi.
 2. Hosildorlikning umumiy indeksi.
 3. O'rtacha hosildorlik indeksi.
 4. O'rtacha hosildorlikning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
 - a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.
 - b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.
 5. Yalpi hosilning umumiy indeksi.
 6. Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
 - a) Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.
 - b) Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.
 - v) Hosildorlik va ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi birgalikdagi ta'sir hisobiga.
- Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida xulosa yozing.

2-ilova

Guruhlarning ishlashini baholash jadvali

Guruh	Baholash mezonlari	
	Prezentatsiya (mazmuni, ma'nosi va xulosalarning isboti uchun) A'lo – 2 ball Yaxshi – 1,5 ball Qoniqarli – 1 ball Qoniqarsiz – 0,5	Muammoli masalaning yechimi uchun (to'g'riligi va yechimning ketma-ketligi uchun) A'lo – 2 ball Yaxshi – 1,5 ball Qoniqarli – 1 ball Qoniqarsiz – 0,5 ball
1.		
2.		

**IKKINCHI NAMUNA.
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Mamatqulov B. X.

“Agrobiznes statistikasi” modulining “Asosiy fondlar statistikasi” (Samarqand viloyati «Qorako‘l” birlashmasi misolida) mavzusi bo‘yicha tayyorlangan

KEYS-STADI

Keys: Samarqand viloyati “Qorako‘l” birlashmasining hisobot yildagi “Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisoboti” ma‘lumotlari asosida hisobot davrdagi (asosiy bir yillik) asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariniqay darajada o‘zgarganligini o‘rganish.

Toshkent -2022

I.Keys

1. **Fanning nomi:** «Agrobiznes statistikasi»

Mavzuning nomi: «Asosiy fondlar statistikasi» mavzusiga moslangan keys.

2. **Berilgan keysning maqsadi:** Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini Samarqand viloyati «Qorako'l» birlashmasining hisobot yildagi «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisoboti» ma'lumotlari asosida hisoblaymiz;

Kutilayotgan natijalar: Birlashma faoliyatini o'rgangan holda, bilimni chuqurlashtirish, asosiy fondlarni yaratish uchun sarflangan mablag'larni miqdorini aniqlash, asosiy fondlar miqdorini, tarkibini va foydalanish darajasini tahlilini o'rganib chiqish va berilgan muammolarni yechish. Keys muqaffaqiyatli yechish uchun talabalar **quyidagi natijalarga** erishishlari lozim: qishloq xo'jaligida, turli mulk shakllaridagi xo'jaliklarda, mintaqalarda asosiy fondlar miqdorini, ularning tarkibi va xolatini, ularning xarakterini aniqlash, asosiy fondlar bilan ta'minlanish darajasini baholash, foydalanishni iqtisodiy samaradorligini taxlil etish.

3. **Mazkur keys institutsional tizimning** real faoliyatasosida ishlab chiqilgan;

4. **Keysda ishlatilgan ma'lumotlar manbai** quyidagilardan iborat: Samarqand viloyati Qorako'l birlashmasining hisobot yildagi «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisoboti» ma'lumotlari asosida, ushbu korxonaning nizomi, Samarqand viloyati qishloq xo'jaligining statistik ma'lumotlari.

5. **Mazkur keys dala tadqiqotlari** asosida syujetli toifasiga kiradi. Holat birlashmaning tahliliy ko'rsatkichlari asosida tuzilgan. Keysning ob'ekti bo'lib: Samarqand viloyati «Qorako'l» birlashmasi hisoblanadi. Ushbu keys ma'lumotlar va dalillar asosida ishlab chiqilgan. U tuzilmaviy va katta hajmdagi keys – stadi hisoblanadi.

6. **Didaktik maqsadlarga ko'ra** keys – tahlillarni o'rgatish va baholash hisoblanadi. Shu sababdan, keys muammosining shakllanishi va tuzilishi uning masalasining yechimida algoritm va tahlil asosida ishlab chiqilgan. Gologramma sifatida ba'zi ma'lumotlar nazariy jihatdan berilgan bo'lib, qo'shimcha axborotlar muammoli holatlarni amaliy mashg'ulotlarda o'z yechimlariga ega bo'ladi.

Keysning afzalliklariga quyidagilar kiradi: O'quv darsining keys – texnologiya o'qitish bo'yicha, talabalarning o'zi tashkil etgan ish faoliyatining ta'minlovchi va uning natijaviy bahosini belgilovchi «Holatli tahlil varaqasi» mavjud.

7. Ushbu keys – «Mehnat statistikasi», «Iqtisodiy statistika» fanlarining mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

KIRISH

Respublikamiz hukumatining faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash siyosati hozirgi vaqtda, ayniqsa, qishloq joylarda iqtisodiy infrastrukturani ishbilarmon tadbirkorlar tomonidan takomillashtirish va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

Ko'p xarajatlar talab qilinishiga qaramay, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish tadbirkorlar oldida turgan dolzarb vazifalardan eng asosiysi hisoblanadi.

Quyidagi ma'lumotda «Qorako'l» birlashmasining ish faoliyati haqida asosiy tushunchalar, asosiy fondlar miqdorini, tarkibini va foydalanish darajasi xaqida va boshqa ma'lumotlar berilgan.

Asosiy fondlarning ayrim turlari naturada, umumiy hajm va tarkibi pul qiymatida hisobga olinadi, chunki asosiy foydalarni pul qiymatida hisoblash shu ho'jalikda asosiy fondlarni yaratish uchun sarflangan mablag'larni miqdori, shuningdek, asosiy fondlarning yetishtirilgan mahsulotlarga o'tgan qiymatini aniqlash imkonini beradi. Natijada asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisobot ma'lumotlaridan foydalanib aniqlash mumkin bo'ladi.

Mazkur keysda ushbu birlashmaning hisoblangan har bir ko'rsatkichi mustaqil iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, birlashmada asosiy fondlarni yaratish uchun sarflangan mablag' miqdorini aniqlash imkonini beradi. Qishloq xo'jalik korxonalarining buxgalteriya hisobida asosiy fondlar boshlang'ich qiymatida hisobga olinadi. Shu bilan birga asosiy fondlar turli vaqtlarda hosil qilinadi, demak ularning baholari ham turlicha buladi. Shu sababli asosiy fondlarni qiymatiga qarab taqqoslab bulmaydi va ularning dinamikasini ham o'rganish qiyin bo'ladi. Asosiy fondlarni taqqoslashni ta'minlash uchun ularni inventarizatsiyasi o'tkazilib aniq vaqtdagi qiymatiga ko'ra qaytadan baholash muammolarini hal etishga, hamda ularning yechishiga yordam beradi.

Keysda masalaning yechimi orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- mazkur mavzu bo'yicha bilimni chuqurlashtirish;
- individual va guruhlarda muammoning yechimi tahlilini va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ishlab chiqish;
- mantiqiy fikr yuritishni jonlantirish;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'quv ma'lumotlarni o'rganish darajasini tekshirish.
- tovar strategiyalarni ishlab chiqish yo'llari.

1. «Qorako‘l» birlashmasiga iqtisodiy tavsifnoma

Tashkilotning manzili:

Birlashma Samarqand viloyati, Urgut tumani, Shohi-zinda shahri, Qishloq xo‘jaligi zonasida joylashgan bo‘lib, birlashma 1998 yildan boshlab faoliyat yuritadi.

Tashkilotning to‘liq nomlanishi:

«Qorako‘l» birlashmasi

Tashkilotning tashkil etilgan yili:

Samarqand viloyati Urgut tumani Hokimining 1998 yil 10 martdagi 234-sonli qarori bilan ro‘yhatdan o‘tgan.

Tashkilotning shakli:

«Qorako‘l» birlashmasi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, tumani Hokimining 1997 yil 22 martdagi 70-sonli qaroriga asosan ro‘yxatga olingan.

Tashkilotning faoliyat turi:

«Qorako‘l» birlashmasi quyidagi faoliyat turlari bilan shug‘ullanadi:

- chorvachilik, parrandachilik, go‘shini qayta ishlash va kolbasa mahsulotlarini ishlab chiqarish.
- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, sotib olish, qayta ishlash, saqlash hamda bozorlarda sotish, shu jumladan, o‘z savdo shaxobchalari orqali sotish;
- chorvachilik va parrandachilik faoliyati bilan shug‘ullanish, chorva mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, sotib olish va sotish;
- savdo do‘konlarini tashkil qilish va savdo-sotiq faoliyati bilan shug‘ullanish hamda maishiy xizmat shaxobchalari ochish;
- issiqxonalar barpo etish va ularda issiqxona mahsulotlari yetishtirib, aholiga sotish hamda bog‘dorchilik va uzumchilik faoliyati bilan shug‘ullanish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish va raqobatbardosh mahsulotlarini ko‘paytirib, jahon bozoriga olib chiqish.

Xo‘jalikning mexnat faoliyati go‘sh va parrandachilik mahsulotlarini qayta ishlash va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan bo‘lib, ushbu fermer xo‘jaligi o‘zida bir nechta xususiy tadbirkorlarni birlashtirib, shu jumladan, chorvachilik hamda go‘shdan kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Asosiy ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar 20 turdan ortiq bo‘lib, kolbasa, sosiska, sardelka, dudlangan kolbasa, tuxum, parranda go‘sh, mol go‘sh va bozorda bo‘lmagan, yangi talabga javob beradigan mahsulotlarni tashkil qilib, sifatli, xorijiy mahsulotlar bilan raqobatlasha oladigan go‘sh mahsulotlari ishlab chiqariladi. Ushbu fermer xo‘jaligi dastlab besh xildagi kolbasa mahsulotlari ishlab chiqargan bo‘lsa, hozirda 11 xildagi kolbasa, 4 xilda sosiska va 2 xildagi vetchina, makaron mahsulotlari hamda sardelka mahsulotlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Tashkilotning maqsad va vazifalari:

- ishlab chiqarishni yanada kuchaytirish va halqaro miqyosda kengaytirish;
- shahar aholisi va mahalliy aholini o‘zining sifatli mahsulotlari bilan ta‘minlash;
- joylarda savdo shaxobchalarini tashkil etish va qulay sharoitda aholiga keng xizmat ko‘rsatish;

- tabiiy oziq-ovqat va go'sht mahsulotlarini ko'paytirish va daromad olish.

2. «QORAKO'L» BIRLASHMASINING BOSHQARUV TIZIMI HAQIDA MA'LUMOT


Tashkilotning boshqaruv tuzilishi:

«QORAKO'L» birlashmasiyuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, davlat tomonidan boshqarilmaydi. «QORAKO'L» birlashmasixususiy bo'lganligi sababli, «QORAKO'L» birlashmasining 2000 yilda tasdiqlangan va Samarqand viloyati Urgut tumani Hokimining 2000 yil 10 mayidagi 305-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tgan nizomining V bandiga asosan ish yuritiladi. «QORAKO'L» birlashmasi nizomining V-17 bandida yozilishicha, «QORAKO'L» birlashmasiga 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligida tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo'lgan, muomalaga layoqatli xo'jalik a'zolaridan biri rahbarlik qilishi mumkin. «QORAKO'L» birlashmasining rahbariyatidan tashqari mahalliy ishsizlar sonini kamaytirish maqsadida «QORAKO'L» birlashmasiyaqin atrofdagi mahallaning 100 nafardan ortiq a'zosini xo'jalikda mehnat qilishga jalb etgan. Olingan 100 nafardan ortiq ishchi kuchini malakasini oshirish uchun kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirilgan bo'lib, «QORAKO'L» birlashmasiiqtisodiyotini ko'tarish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardosh va yuqori sifatli bo'lishini ta'minlash vazifasi birlashma zimmasiga olingan.

Chizma №1

Tashkilotning boshqaruv shakli:

«QORAKO'L» birlashmasining tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv faoliyatining umumiy ko'rinishi



1-rasm. «QORAKO'L» birlashmasining tashkiliy tuzilmasining umumiy ko'rinishi

Tashkilotning chet el bilan hamkorligi:

«QORAKO‘L» birlashmasining chet el mamlakatlari bilan aloqalarini 2000 yillardan boshlab yo‘lga qo‘ygan. Chet ellik fermer xo‘jaliklari bilan o‘z faoliyatini yurgizish va mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish uchun **«QORAKO‘L» birlashmasining** rahbariyati chet ellik mutaxassislarni O‘zbekistonga taklif qilib, **«QORAKO‘L» birlashmasining** ishchilari va xodimlarini o‘qitdi, hamda ularning malakasini oshirdi.

3. «Qorako‘l» birlashmasining asosiy fondlari haqida ma‘lumot.

3.1 Tadqiqotlar tizimida asosiy fondlarning holati va harakatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarini o‘rganish.

Asosiy fondlarning ayrim turlari naturada, umumiy hajm va tarkibi pul qiymatida hisobga olinadi, chunki asosiy foydalarni pul qiymatida hisoblash shu ho‘jalikda asosiy fondlarni yaratish uchun sarflangan mablag‘larni miqdori, shuningdek asosiy fondlarning yetishtirilgan mahsulotlarga o‘tgan qiymatini aniqlash imkonini beradi. Statistika amaliyotida asosiy fondlarni pulga chaqib baholashning turli usullari bor:

-Asosiy fondlarni boshlang‘ich (dastlabki) to‘liq qiymati. Bungafondning dastlabki sotish (ishlab chiqarish) bahosi, uni keltirib ko‘rish va o‘rnatish harajatlari qiradi;

-To‘liq tiklangan qiymat. Bu shu vaqtning o‘zida hozirgi baholarda fondning takror ishlab chiqilgan qiymatidir. Bu qiymat asosiy fondlarni qaytadan baholash jarayonida aniqlanadi;

-Boshlang‘ich to‘liqqiymatidan eskirgan, yeyilgan qiymatni chiqarib tashlagandan qolgan qiymat. Bu asosiy fondlarning to‘liq qiymati bilan ularning eskirgan, yeyilgan qiymati o‘rtasidagi tafovutdir;

-Tiklangan bahodan eskirgan, yeyilgan qism qiymatini chiqarib tashlagandan so‘ng qiymati. Bu asosiy fondlarning to‘liq tiklangan qiymati bilan eskirgan, yeyilgan qiymati o‘rtasidagi tafovutdir;

Bu usullarda hisoblangan har bir ko‘rsatkich mustaqil iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib xo‘jalikda asosiy fondlarni yaratish uchun sarflangan mablag‘ miqdorini aniqlash imkonini beradi. Qishloq xo‘jalik korxonalarining buhgalteriya hisobida asosiy fondlar boshlang‘ich qiymatida hisobga olinadi. Shu bilan birga asosiy fondlar turli vaqtlarda hosil qilinadi, demak ularning baholari ham turlicha buladi. Shu sababli asosiy fondlarni qiymatiga qarab taqqoslab bulmaydi va ularning dinamikasini ham o‘rganish qiyin bo‘ladi.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashaverib asosiy fondlar eskiradi, yemiriladi shu bilan birga ular ma‘naviy jihatidan ham eskiradi. Eskirish qiymatini qoplash va yangilash maqsadida asosiy fondlarning amortizatsiya fondi tashkil etiladi. Xar yili oldindan belgilangan me‘yor bo‘yicha asosiy fondlar qiymatidan amortizatsiya ajratishlari hisoblanib, fondlarga o‘tkaziladi. Amortizatsiya ajratmalar me‘yorlar xukumat qarorlari bilan belgilanadi.

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishni tasniflash uchun ularni hisobot davrdagi (asosiy bir yillik) xarakatini tasniflovchi balanslardan keng foydalaniladi. Balans

jadval shaklida tuzilib yo'llari buyicha asosiy fondlarni turlari, ustunlar bo'yicha ularni o'zgarishlari yil boshidagi holati, yil davomida kelib tushgan, yil davomida chiqarilgan, yil oxiriga holati ko'rsatiladi.

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini quyidagi hisobot ma'lumotlaridan foydalanib aniqlash mumkin:

1. Xo'jalikning yillik hisoboti tarkibidagi 3-shakl bo'yicha tuzilgan «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari;

2. 11-shaklda tuzilgan davlat statistika hisoboti tarkibidagi «Asosiy vositalarning mavjudligi, harakati va tarkibi» to'g'risidagi 1-bo'lim ma'lumotlari.

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlari quyidagi koeffitsientlar orqali ifodalanadi va o'rganiladi:

1. Asosiy fondlarning o'sish koeffitsienti;
2. Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish koeffitsienti;
3. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsienti;
4. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsienti;
5. Asosiy fondlarning safini to'ldirish koeffitsienti;
6. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsienti.

3.2. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risidagi «Qorako'l» birlashmasining hisobot yilgi ko'rsatkichlari tahlili.

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini Samarqand viloyati Qorako'l birlashmasining hisobot yildagi "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisoboti" ma'lumotlari asosida hisoblaymiz. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan.

Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risidagi hisobot yil ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich-larning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm			Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln.so'm		
	Yil boshiga qoldiq	kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino,inshoot, uzatish moslamasi	707,4	229,6	23,3	913,7	229,0	265,0	478,4	648,7
2.Mashina va jihozlar	275,0	49,8	32,3	292,5	119,8	112,0	155,2	180,5
3.Transport vositalari	74,4	51,3	2,5	123,2	27,4	29,2	47,0	94,0
4.Ishchi va mahsuldor chorva mollari	1373,7	1027,5	453,9	1947,3	-	-	1373,7	1947,3
5.Boshqa asosiy fondlar	64,6	1,4	2,8	63,4	20,2	19,3	44,4	44,1
Jami	2495,1	1359,6	514,8	3340,1	396,4	425,5	2098,7	2914,6

3. Talabalarga beriladigan mulohaza uchun savollar

1. Moddiy-texnik baza deganda nimani tushunasiz?

2. Ishlab chiqarish fondlari to'g'risida tushuncha.
3. Asosiy fondlar deb nimaga aytiladi?
4. Aylanma fondlarning ta'rifi.
5. Asosiy fondlarning guruhlari va ularning ta'rifi.
6. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga oid bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining ta'rifi.
7. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlari.
8. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi va yaroqliligi ko'rsatkichlarini aniqlash va ta'riflash.
9. Xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari.
10. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini ayting va mazmunini ta'riflang.

5. Talabalar uchun uslubiy qo'llanmalar

Muammo:

Samarqand viloyati "Qorako'l" birlashmasining hisobot yildagi "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisoboti" ma'lumotlari asosida hisobot davrdagi (asosiy bir yillik) asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlariniqay darajada o'zgarganligini o'rganish.

Vazifalar:

1. Asosiy fondlarning o'sish koeffitsienti;
2. Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish koeffitsienti;
3. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsienti;
4. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsienti;
5. Asosiy fondlarning safini to'ldirish koeffitsienti;
6. Asosiy fondlarni hisobdan chiqarish koeffitsientini =isoblash

Yechish algoritmi:

Ushbu jadval ma'lumotlaridan (asosiy fondlarning balansidan) *Asosiy fondlarning o'sish koeffitsientini* aniqlash uchun ularning yil oxiridagi qiymatini yil boshidagi qiymatiga bo'lish kerak, ya'ni quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Asosiy fondlarning ushbu koeffitsienti} = \frac{\text{Asosiy fondlarning oхиридаги киймати}}{\text{Asosiy fondlarning йил бoшидаги киймати}} \cdot 100$$

Ushbu koeffitsient asosiy fondlarning o'sish darajasini ifodalaydi, ya'ni ularning yil oxiridagi hajmi yil boshiga nisbatan necha foizni tashkil qilganligini bildiradi.

Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish koeffitsienti ikki xil usul orqali aniqlanadi.

Birinchi usul. Asosiy fondlarning mutloq o'sish miqdorini asosiy fondlarning yil boshidagi boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$\text{Қoшимча ushbu koeffitsienti} = \frac{\text{Asosiy fondlarning mutloқ ushbu х 100}}{\text{Asosiy fondlarning йил бoшидаг ибoшланг ички киймати}}$$

Asosiy fondlarning mutloq o'sish miqdorini aniqlash uchun yil oxiridagi boshlang'ich qiymatidan yil boshidagi boshlang'ich qiymatini chegirib tashlash kerak.

Ikkinchi usul. Asosiy fondlarning o'sish koeffitsientidan 100 foizni chegirib tashlash orqali aniqlanadi:

$$\text{Кушимча усии кoeffициенти} = \text{Асосий фондларнинг усии кoeffициенти} - 100\%$$

Qo'shimcha o'sish koeffitsienti asosiy fondlar hajmi yil (davr) oxirida yil (davr) boshiga nisbatan necha foizga oshganligini (yoki kamayganligini) ko'rsatadi.

Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish ko'rsatkichi milliy boylikning uning asosiy qismi hisobiga jamg'arilishini ifodalaydi, ya'ni milliy boylikni asosiy fondlar hisobiga jamg'arilayotgan hajmining oshayotganini ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda moddiy-texnik bazaning mustahkamlanayotganligini ifodalaydi.

Asosiy fondlarning eskirish koeffitsienti ham davr (yil) boshiga, ham davr (yil) oxiriga aniqlanadi. Ushbu koeffitsientni aniqlash uchun eskirish summasini 100 foizga ko'paytirib asosiy fondlarning boshlang'ich qiymatiga bo'linadi:

$$\text{Эскириш кoeffициенти} = \frac{\text{Асосий фондларнинг эскириш суммаси} \times 100}{\text{Асосий фондларнинг бошлангич киймати}}$$

Bu koeffitsient asosiy fondlarning texnik holatiga baho berishda qo'llaniladi. Ushbu koeffitsient qancha yuqori bo'lsa, asosiy fondlar holati shuncha yomonlashgan bo'ladi.

Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsienti ikki xil usul orqali aniqlanadi:

Birinchi usul. Asosiy fondlarning qoldiq qiymatini 100 foizga ko'paytirib, asosiy fondlarning boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$\text{Яроқлилиқ кoeffициенти} = \frac{\text{Асосий фондларнинг қолдиқ кийматининг 100}}{\text{Асосий фондларнинг бошлангич киймати}}$$

Ikkinchi usul. 100 foizdan eskirishi koeffitsientini ayirish orqali aniqlanadi.

$$K_g = 100\% - K_e$$

Asosiy fondlar safini to'ldirish koeffitsientini aniqlash uchun yil davrida ishga tushirilgan, sotib olingan va boshqa yo'llar bilan kiringa olingan fondlar qiymatlarining yig'indisini yil oxiridagi asosiy fondlar qiymatiga bo'lish kerak. Ushbu koeffitsientni fondlarning yil boshidagi qiymatiga nisbatan aniqlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsientini aniqlash uchun yil davomida ishga tushirilgan va sotib olingan yangi asosiy fondlarning qiymatini ularning yil oxiridagi umumiy qiymatiga bo'lish kerak:

$$\text{Янгиланиш кoeffициенти} = \frac{\text{Йил давомидатида тугирилган янги асосий фондлар кийматининг 100}}{\text{Асосий фондларнинг йил охиридаги умумий киймати}}$$

Bu koeffitsient jami asosiy fondlar va shu jumladan ularning aktiv qismi bo'yicha ham hisoblanadi. Bu koeffitsient yil oxiridagi jami asosiy fondlar hajmiga nisbatan yangi asosiy fondlar qiymatining egallagan hissasini bildiradi. Bu ko'rsatkich ma'lum darajada iqtisodiyotdagi texnika taraqqiyotini ham ifodalaydi. Bu koeffitsientni yil boshidagi qiymatiga nisbatan hisoblashni tavsiya qilamiz.

Asosiy fondlarni hisobdan chiqarish koeffitsientini hisoblash uchun yil davomida har xil yo‘llar bilan hisobdan chiqarilgan asosiy fondlar qiymatlarining jamini asosiy fondlarning yil boshidagi jami qiymatiga bo‘lish kerak:

$$\frac{\text{Hisobdan chiqarish koeffitsientini}}{\text{Asosiy fondlar qiymatiga}} = \frac{\text{Hisobdan chiqarilgan asosiy fondlar qiymatining jami}}{\text{Asosiy fondlarning yil boshidagi jami qiymatiga}}$$

Asosiy fondlarning eskirishi tufayli hisobdan chiqarish koeffitsientini aniqlash uchun eskirishi, yeyilishi, qariganligi natijasida hisobdan chiqarilgan asosiy fondlarning qiymatini jami asosiy fondlarning yil boshidagi qiymatiga bo‘lish kerak.

5. Holatliy tahlilning varaqasi

Tahlil bosqichining nomi	Tahlil bosqichining mazmuni	Tahlil bosqichi	Baholash mezonlari
1. Holatliy tahlil	1. Holatning aniq ko‘rinishi va masalaning hal etilishi, yechilishi uchun aniq ma’lumotlar. 2. Holatning eng muhim xususiyatlari: Nima bo‘lmoqda? Holatning natijalarini shakllanishi qanday?		1 – 0.5 ball 2 – 1 ball
2. Muammoning shakllanishi	Muammoda aks ettiruvchi asosiy xususiyatlar: 1. Asosiy fondlarning o‘shish koeffitsienti; 2. Asosiy fondlarning qo‘shimcha o‘shish koeffitsienti; 3. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsienti; 4. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsienti; 5. Asosiy fondlarning safini to‘ldirish koeffitsientini; 6. Asosiy fondlarni hisobdan chiqarish koeffitsientini hisoblash.		A) – 0.5 ball B) – 0.5 ball V) – 1 ball
3. Holatning ishtirokchilarini aniqlash	«Qorako‘l» birlashmasining iqtisodiy tavsifnomasi, ish faoliyati va tarkibi, boshqarish tizimi		1 ball
4. Bozor kon’yunkturasi holatning o‘rganish	Asosiy fondlarning holatini aniqlash va ularning afzallik yoki talabga javob berish holatini o‘rganib chiqish.		2 ball
5. Korxonalarni taqqoslash yoki ularning bozor-dagi o‘rnini egallashi	A) Raqobatchi korxonalarining bozordagi mavqeini aniqlash; B) Taqqoslash natijalari aniqlanadi		A) 1.0 ball B) 1.5 ball
6. Korxonaning SWOT tahlili yoki mavjud bo‘lgan usullarda yechish	1) Raqobatbardosh korxonalar korxonalarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash. 2) Ushbutahli asosida korxonaning imkoniyatlarini aniqlash.		1) 1.5 ball 2) 2 ball
7. Muqobil variantlarini bilish va eng alternativ holatini tanlash	Holatliy masalaning alternativ yechimlarni bildirish: bo‘lishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarni bildirish. Har bir alternativlarni baholash. Salbiy va ijobiy tomonlarini ko‘rsatish. Eng zo‘r alternativani tanlash.		1.5 ball
8. Yechimni ishlab chiqish	Masalaning yechimini hal qilmoq va ishlab chiqish, tovarlar assortimenti strategiyasini ishlab chiqish.		2 ball

6. O'quv - uslubiy materiallar

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning muhim omillaridan bo'lib, asosiy va aylanma fondlar bilan ta'minlanishi hisoblanadi.

Asosiy va aylanma fondlar vujudga kelishi bo'yicha qishloq xo'jalik mahsuloti va boshqa tarmoqlar iqtisodining mahsulotiga bo'linadi.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti hisobidan yuzaga kelgan asosiy fondlar xo'jalikda foydalanish yoshiga yotgan mevali daraxtlar, ishchi va mahsuldor mollardan tashkil topadi. Qishloq xo'jaligi mahsuloti hisobidan yuzaga kelgan aylanma fondlar o'z ichiga tugallanmagan ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarish ehtiyoji uchun ishlatiladigan tayyor mahsulotning ayrim qismini (urug', ozuqa va b.q) oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotiga tegishli bo'lmagan, ya'ni boshqa tarmoq iqtisodiga tegishli bo'lgan asosiy fondlariga imoratlar, inshootlar, transport vositalari, mashina va jihozlar va boshqalar kiradi, aylanma fondlariga o'g'it, zaxarliximikalar va boshqa Qishloq xo'jaligi mahsulotlari kiradi.

Takror ishlab chiqarishdagi rolga qarab moddiy-texnik baza mehnat vositalari va mehnat predmetlariga bo'linadi.

Mehnat vositalari moddiy ne'matlardan tashkil topgan bo'lib, ular yordamida ishlovchilar mehnat predmetlariga ta'sir o'tkazadi. Bularga mehnat qurollari va mehnat moddiy sharoitlarini ifodalovchi ne'matlar kiradi.

Mehnat qurollariga qishloq xo'jalik mashinalari va jihozlari, inventarlar, ishchi va mahsuldor mollar kiradi. Mehnat moddiy sharoitlarini ifodalovchi ne'matlarga imorat va inshootlar, aloqa vositalari va boshqalar kiradi.

Mehnat predmetlari moddiy ne'matlar bo'lib, ishlovchilarning mehnatining ta'siri ostida ulardan yangi moddiy ne'matlar yaratiladi. Bularga urug', ozuqa, yosh va boquvdagi mollar va boshqa ne'matlarni kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining ish faoliyatida, mehnat vositalari va mehnat predmetlari uzluksiz ravishda ishtirok etadi. Ular mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ishtirok etishiga qarab asosiy va aylanma fondlarga bo'linadi. Boshqacha aytganda mehnat vositalari *asosiy fondlar* deb, mehnat predmetlari esa *aylanma fondlar* deb ataladi.

Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ko'p yillar davrida xizmat qiluvchi, o'zlarining eskirgan qismini yaratilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat qiymatiga o'tkazib boruvchi, o'z natura shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalari asosiy fondlar deb ataladi. Bularga traktor, kombayn, transport vositalari, imoratlar, inshootlar va boshqa mehnat vositalarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida bir marta ishtirok etuvchi, o'z qiymatini yaratilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat qiymatiga to'liq o'tkazuvchi, o'z natura shaklini yo'qotuvchi mehnat predmetlari aylanma fondlar deb aytiladi.

Bularga urug'lik, yem-xashak, o'g'it, yoqilg'i va moylash materiallari, kam baholi buyumlar kabi mehnat predmetlari kiradi.

Asosiy fondlar ikki guruhga bo'linadi:

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlari;
2. Noishlab chiqarish asosiy fondlari.

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etib, moddiy ne'mat yaratuvchi mehnat vositalari asosiy ishlab chiqarish fondlari hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining asosiy ishlab chiqarish fondlari o'z navbatida ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga oid bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari;
2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga oid bo'lmagan asosiy ishlab chiqarish fondlari.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga oid bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari o'z navbatida quyidagi uch guruhga bo'linib o'rganiladi:

1. O'simlikchilik sohasida band bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari;
2. Chorvachilik sohasida band bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari;
3. Umumxo'jalik yo'nalishiga oid bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga oid bo'lmagan asosiy ishlab chiqarish fondlariga qishloq xo'jalik korxonasi tarkibidagi Qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va ovqatlanish tarmoqlarida band bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari kiradi.

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydigan, ammo ishlab chiqarish faoliyatini yuritish uchun shart-sharoit yaratib beruvchi mehnat vositalari noishlab chiqarish asosiy fondlari bo'lib hisoblanadi. Bularga qishloq xo'jalik korxonasi tarkibidagi tibbiyot, maorif, madaniy-oqartuv, sport sohalarida xizmat qiluvchi asosiy fondlar kiradi.

Har bir guruh tarkibidagi asosiy vositalar o'z xususiyatlaridan kelib chiqib, bir necha turlarga bo'linib, o'rganiladi. Shu jumladan asosiy ishlab chiqarish fondlari 11-shalkdagi davlat statistika hisobotining «Asosiy vositalarning mavjudligi, harakati va tarkibi» nomli 1-bo'limda quyidagi turlarga bo'linib, hisobga olingan:

1. Binolar;
2. Inshootlar;
3. Uzatish qurilmalari;
4. Mashina va asbob-uskunalar;
5. Transport vositalari;
6. Asboblari, ishlab chiqarish va xo'jalik ashyolari;
7. Ish hayvonlari;
8. Mahsuldor mollar;
9. Ko'p yillik mevali daraxtlar;
10. Asosiy vositalarning boshqa turlari.

Asosiy va aylanma fondlar Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy omillari bo'lganligi uchun ham ularning holati va harakatini hamda ulardan foydalanish darajasini o'rganish va statistik tahlil qilish katta ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan asosiy fondlar statistikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Qishloq xo'jaligida turli mulk shakllaridagi xo'jaliklarda, mintaqalarda asosiy fondlarning miqdori, tarkibi, tarkibiy tuzilishi va dinamikasini o'rganish;
2. Asosiy fondlarning holati va harakatini ifodlovchi (takror ishlab chiqarish) ko'rsatkichlarini aniqlash va dinamikasini o'rganish;

3. Asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish darajasini aniqlash va statistik tahlil qilish;

4. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari dinamikasini statistik tahlil qilish;

5. Aylanma fondlarning tarkibi, tarkibiy tuzilishi va dinamikasini o'rganish;

6. Aylanma fondlar bilan ta'minlanish darajasini va ulardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.

7. KEYSOLOGNING JAVOB VARIANTI

Ushbu jadval ma'lumotlaridan (asosiy fondlarning balansidan) foydalanib, asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblash tartibini ko'rib chiqamiz. Asosiy fondlarning mutloq o'sishi yil oxirida yil boshiga nisbatan 845 mln. so'mni tashkil qilgan: $3340,1 - 2495,1 = + 845$ mln.so'm.

1. Asosiy fondlarning o'sish koeffitsienti:

$$K_{a\phi y} = \frac{3340,1}{2495,1} \cdot 100 = 133,9 \%$$

Demak, o'sish koeffitsienti 133,9% ni tashkil qilgan.

2. Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish koeffitsienti. Bu ko'rsatkich ikki xil usul bilan aniqlanadi:

$$1) K_{a\phi xy} = \frac{845}{2495,1} \cdot 100 = 33,9 \%$$

$$2) \ddot{e}ku \ 133,9 - 100 = 33,9 \%$$

Demak, asosiy fondlar hajmi yil oxirida yil boshiga nisbatan 33,9 % ga oshgan.

3. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsienti:

$$\text{Yil boshida: } K_{a\phi b} = \frac{396,4}{2495,1} \cdot 100 = 15,9 \%$$

$$\text{Yil oxirida: } K_{a\phi b} = \frac{425,5}{3340,1} \cdot 100 = 12,7 \%$$

Birlashma bo'yicha asosiy fondlarning eskirish darajasi 3,2 foizga kamaygan, demak fondlar ahvoli yaxshilangan, yaroqlilik darajasi oshgan.

4. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsienti:

$$\text{Yil boshida: } K_{a\phi ba} = \frac{2098,7}{2495,1} \cdot 100 = 84,1 \%$$

$$\ddot{e}ku \ 100 - 15,9 = 84,1 \%$$

$$\text{Yil oxirida: } K_{a\phi ba} = \frac{2914,6}{3340,1} \cdot 100 = 87,3 \%$$

$$\ddot{e}ku \ 100 - 12,7 = 87,3 \%$$

Asosiy fondlarning yaroqlilik darajasi yil oxirida yil boshiga nisbatan 3,2 foizga oshgan.

5. Asosiy fondlar safini to'ldirish koeffitsienti:

$$K_{a\phi m} = \frac{1359,6}{3340,1} \cdot 100 = 40,7 \%$$

Demak, asosiy fondlar safi har xil yo'llar bilan 40,7 foizga kengaytirilgan.

6. Asosiy fondlarni hisobdan chiqarish koeffitsienti:

$$J_{a\phi xu} = \frac{514,8}{2495,1} \cdot 100 = 20,6 \%$$

Yil davrida har xil yo‘llar bilan xo‘jalik hisobidan chiqib ketgan fondlar hajmi 20,6 foizni tashkil qiladi.

8. Amaliy mashg‘ulotlarda muammoli holatlarni yechish bo‘yicha (keys o‘qitish texnologiyasi)

<i>Mavzu</i>	<i>Tovar assortimenti strategiyasini ishlab chiqish</i>
<i>Talabalar soni: 25 –30</i>	<i>Vaqt 4 soat</i>
<i>O‘qitish shakli</i>	<i>Amaliy mashg‘ulotda muammoli holatni yechish orqali bilimni chuqurlashtirish.</i>
<i>Amaliy mashg‘ulot rejas</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Keys – stadiga kirish va nazariy jixatdan yoritib berish. 2. Bilimni chuqurlashtirishning va muammoning dolzarbligi. 3. Birlashmaning asosiy fondlar =olatini o‘rganish. 3. Muammoning shakllanishi va uni yechish yo‘llari. 4. Keys – stadini guruhlarda yechish. 5. Diskussiya orqali muammoli holatni yechish g‘oyalari ko‘rib chiqish. 6. Eng muqobil variantini tanlash va natijalarni prezentatsiya qilish. 7. Guruhlarning ishlash faoliyatini va maqsadga erishilganlik natijalarini baholash va xulosa chiqarish.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i>	Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini hisoblash va ulardan foydalanish samaradorligini yoritib berish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Muammoli holatning hususiyatlarini tavsiflab va tasniflab beradi: <ul style="list-style-type: none"> • Keysda birlashmaning faoliyati va asosiy vositalar holati bilan tanishtiradi va tahlil qiladi; • Muammoni ajratish va uni aniqlab, yechish ketma - ketligini ishlab chiqishni o‘rgatadi; • Keysda muammoning ma’lumotlarini boshqaruv va ishlab chiqarishni tizimini yaxshilash uchun hisob - kitoblar o‘tkazadilar, hamda yakuniy xulosalar chiqaradilar; 	<i>O‘quv faoliyatning natijalari:</i> - Birlashmaning faoliyati va holatini o‘rgangan holda muammoni aniqlaydi va korxonaga taaluqli muammolarni tavsiflab beradilar; -Muammoli holatning ko‘nikmalarini va uning shaklidagi kichik muammolarning iqtisodiy asoslangan yechimlarini ishlab topmoq; -Birlashmaning faoliyatini hisobga olgan holda muammoni yechilishning ketma – ketligini aniqlaydi; - Iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan ishlash yo‘llarini, bashorat qilish, statistik ma’lumotlar tahlili bilan ishlab chiqarish yo‘llarini optimal variantini tanlaydi va mazkur birlashmaning asosiy vositalariga bo‘lgan munosabatlarini aniqlaydi;
<i>O‘qitish uslubi</i>	Keys-stadi uslubi savol-javob, muammolarni yechish
<i>O‘qitish shakli</i>	Amaliy mashg‘ulotda frontal va individual ishlash, guruhlarda ishlash.
<i>O‘qitish vositalari</i>	Ma’ruzalar matni, o‘quv daftarlari, namoyon materiallar (ma’ruzachi tomonidan prezentatsiya-slayd), lazer proektor, kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar (sxemalar, rasmlar, jadvallar),
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	mustaqil o‘rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Ishning bosqichlari va vaqti	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	O'qituvchi	Talaba
1–bosqich. Tayyorlov qismi (10 min)	<p>1.1. Mazkur keysning mutaxassislik yo'nalishiga ta'sirini tushuntiradi va tanishtiradi;</p> <p>1.2. Mashg'ulotning nomini, o'tkazish jarayonini, rejalashtirayotgan maqsad va natijalarni e'lon qiladi.</p> <p>1.3. O'rganib chiqish uchun keysga taaluqli qo'llanmalar va tarqatma materiallar tarqatadi.</p> <p>1.4. Taklif etilgan «Qorako'l» birlashmasining faoliyati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.5. Mustaqil ishlash uchun, holatiy tahlil varaqasini tarqatadi.</p> <p>1.6. Guruhlarda ishlash instruksiyasini tushuntirib o'tadi.</p>	Tinglaydilar va yozib oladilar
2–bosqich Asosiy qism (130 min)	<p>2.1. Nazariy va amaliy tomondan taqqoslangan yangi materialni o'rganishning tashkil qiladi. Buning uchun qisqa tarzda birlashmalarda asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblash borasida, qilinadigan ishlar haqida nazariy jihatdan gapirib beradi. Bu esa amaliy mashg'ulotning rejasiga asoslanib, ekranda jadvallar, chizmalar, rasmlar tariqasida ko'rsatiladiv u sharhlanadi.</p> <p>2.2. Birlashmaning holati bilan muzokarani tashkillashtiradi va quyidagi mashg'ulotning asosiy savollariga amaliyot bilan bog'lagan holda javob beradi:</p> <p>1. «Qorako'l» birlashmasi bu darajaga erishish sabablarini aytib va u marketingning qaysi elementlaridan doimiy holda foydalanadi?</p> <p>2. «Qorako'l» birlashmasi maqsadli segmentlari haqida gapirib bering.</p> <p>3. «Qorako'l» birlashmasi shakllanayotganda qanday muammolarga duch kelgan?</p> <p>2.3. Talabalarni guruhlariga bo'ladi va guruhlarda ishlash jarayonini eslatadi. Keys bilan ishlash uchun individual yoki guruhlarda ishlash jarayoni uchun topshiriqlar beradi. (1-ilova Jamoa ishlab chiqqan holatiy tahlil varaqasini to'ldiradilar, muqobil g'oyalarni tanlab oladilar va baholaydilar.</p> <p>2.4. O'quv faoliyatiga maslahat beradi va yo'naltiradi. Individual va jamoa ish faoliyatini "holatiy tahlil varaqasini" tekshiradi va ba=olaydi.</p> <p>2.5. Prezentsiyani tashkillashtiradi, muhokama qiladi va o'zaro ba=olaydi.</p> <p>2.6. Qorako'l birlashmasining faoliyati to'g'risida savollar berishni tavsiya etadi. (Natijaviy holda «Qorako'l» birlashmasi vakilining javoblarini mashg'ulotning rejasiga mos ravishda amaliyotga bog'langanligini kengaytirib xulosa qiladi. Shu boisdan korxonaning imkoniyatlari qanday va kelajakda faqat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadimi? yo'llarini ko'rsatadi</p> <p>2.7. Javoblarni tekshirib, baho beradi va muhokama qiladi. Muammoning tahlili va xolatning yechimiga alohida e'tibor beradi. 2-ilova)</p> <p>2.8. Keysning o'z yechim variantini e'lon qiladi va namoyish qiladi.</p>	<p>Eshitadilar, konspektlarda qisqa tarzda yozib boradilar.</p> <p>Savollarjavob berishadi va daftarlariga yozib boradilar. Savollarni aniqlaydilar, muhokama qiladilar va tushunmagan joylarini so'raydilar.</p> <p>O'quv topshiriqlarni bajaradilar.</p> <p>Guruhlar natijalarning prezentsiya qiladilar. Diskussiyada qatnashadilar, savollar beradilar va o'zaro bao'olaydilar.</p>
3–yakuniy bosqich (20 min)	<p>3.1. Natijalarga yakuniy xulosalar qiladi, talabalarning e'tiborini asosiy nuqtalarga qaratadilar, xulosalar qiladilar va bao'olaydilar.</p> <p>3.2. «Qorako'l» birlashmasining faoliyatini tahlil qilish talabalarning yo'nalishlariga va bo'lajak kasblariga ta'sirini anglatib o'tadi.</p> <p>3.3. Mustaqil ta'lim uchun vazifa beradi: Amaliyotni nazariyaga bog'lagan holda biron-bir korxonani misol qiling va bu seminar darsida muhokama qilinishini aytib o'tadi.</p>	

Keys bilan ishlash uchun guruhlarda ishlash jarayoni uchun topshiriqlar beriladi:

1-guruh.

Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risidagi hisobot yil ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich-larning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm			Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiy-mati, mln.so'm		
	Yil boshiga qoldiq	kim	Chi-qim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiri-ga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino,inshoot, uzatish mosla-masi	717,4	239,6	24,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	265,0	49,8	32,3		119,8	112,0		
3.Transport vositalari	74,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Ishchi va mahsuldor chorva mollari	1383,7	1027,5	453,9		-	-		
5.Boshqa asosiy fondlar	65,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

2-guruh.

Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risidagi hisobot yil ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm			Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiy-mati, mln.so'm		
	Yil boshiga qoldiq	kim	Chi-qim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiri-ga	Yil boshiga	Yil oxiri-ga
1.Bino,inshoot, uzatish mosla-masi	747,4	229,6	23,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	235,0	49,8	32,3		119,8	112,0		
3.Transport vositalari	73,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Ishchi va mahsuldor chorva mollari	1473,7	1027,5	453,9		-	-		
5.Boshqa asosiy fondlar	44,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

3-guruh.
Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risidagi
hisobot yil ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich-larning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm			Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiy-mati, mln.so'm		
	Yil boshiga qoldiq	kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino,inshoot, uzatish moslamasi	757,4	229,6	23,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	255,0	49,8	32,3		119,8	112,0		
3.Transport vositalari	75,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Ishchi va mahsuldor chorva mollari	1573,7	1027,5	453,9		-	-		
5.Boshqa asosiy fondlar	54,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

4-guruh.
Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risidagi hisobot yil ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm			Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiy-mati, mln.so'm		
	Yil boshiga qoldiq	kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino,inshoot, uzatish moslamasi	767,4	229,6	23,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	265,0	49,8	32,3		119,8	112,0		
3.Transport vositalari	84,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Ishchi va mahsuldor chorva mollari	1673,7	1027,5	453,9		-	-		
5.Boshqa asosiy fondlar	64,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

2-ilova

Guruhlarning ishlashini baholash jadvali

Guruh	Baholash mezonlari	
	Prezentatsiya (mazmuni, ma'nosi va xulosalarning isboti uchun) A'lo – 2 ball Yaxshi – 1,5 ball Qoniqarli – 1 ball Qoniqarsiz – 0,5	Muammoli masalaning yechimi uchun (to'g'riligi va yechimning ketma-ketligi uchun) A'lo – 2 ball Yaxshi – 1,5 ball Qoniqarli – 1 ball Qoniqarsiz – 0,5 ball

VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1) Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ish – mavjud matn yoki bir qancha matnlarni izohlovchi shakllaridan biri sanaladi. Shu boisdan, konspektidan farqli o‘laroq, mustaqil ish yangi, muallif matn sanaladi. Ushbu holatda yangilik, yangicha taqdim etish, materiallarni tartiblashtirish, har xil nuqtai nazarlarni o‘zaro solishtirishda alohida mualliflik yondashuvi tushuniladi.

Mustaqil ish - har xil nuqtai nazarlarni o‘zaro solishtirish va tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni talab etadigan bir yoki bir qancha manbalarni o‘zida mujassam etadigan g‘oyalarni qisqacha yozma ko‘rinishidagi taqdimotidir.

Mustaqil ishning turlari va tizimi:

1. Ifodalanish to‘liqligicha ko‘ra:

- a) informativ (referatlar – konspektlar);
- b) indikativ (referatlar –rezyume (qisqacha mazmun)

2. Mustaqil ish tarkibi:

A) bibliografik qayd etilishi:

- F.I.Sh.ning nomi;
- chop etilgan manzili;
- nashriyot, yil;
- sahifalar soni.

B) Mustaqil ish matni:

- mavzu, muammo, mustaqil ish qilinadigan ish predmeti, maqsadi va mazmuni;
- tadqiqot usullari;
- aniq natijalari;
- muallif xulosasi;
- ish natijalarini qo‘lannish sohasi.

O‘quv fani bo‘yicha mustaqil ish tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- O‘quv predmeti dolzarb nazariy masalalari bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga ushbu olingan nazariy bilimlarni ijodiy ko‘nikmasini hosil qilish;

- Tanlangan kasbiy sohada xorij tajribalarini, mavjud sharoitlarda ularni amaliy jihatdan qo‘llash imkoniyatlari va muammolarini o‘zlashtirish;

- Tanlangan mavzu bo‘yicha har xil adabiy manbalarni (monografiya, davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar va shu kabilar) o‘rganish qobiliyatini takomillashtirish va ular natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil, hamda bilimdon holda materialni ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish;

- Yozma ko‘rinishdagi ishlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish ko‘nikmalarni rivojlantirishdir.

“Real sektor statistikasi” modulidan mustaqil ta’limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi: ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida o‘zlashtirish; amaliy mashg‘ulotlar uchun topshirilgan mavzuni axborot resurs

manbalaridan foydalangan, rasmiy statistika ma'lumotlarini to'plagan holda bajarish.

Tinglovchi mustaqil ishni tashkil etishining mazmuni "Iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti" modulining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagilarga asoslanib tayyorlanishi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

3) Mustaqil ta'lim mavzulari.

"Real sektor statistikasi" modulidan mustaqil ta'lim sifatida o'rganiladigan quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida fanning mazmuni, maqsadi va vazifalari.
2. Korxonalar mahsuloti statistikasi
3. Xodimlar soni, tarkibi va ish vaqtidan foydalanish statistikasi
4. Mehnat unumdorligi statistikasi
5. Ish haqi statistikasi
6. Korxonalar asosiy fondlari statistikasi
7. Ishlab chiqarish mashina uskunalari statistikasi
8. Energetik uskunalari statistikasi
9. Ishlab chiqarish xarajatlari statistikasi
10. Korxonalar faoliyatining moliyaviy natija ko'rsatkichlari
11. Er – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish vositasi va uni statistik o'rganish ahamiyati
12. Qishloq xo'jaligi yerlari statistikasi
13. Qishloq xo'jaligi asosiy fondlari statistikasi
14. Qishloq xo'jaligi texnikasi statistikasi
15. Qishloq xo'jaligi aylanma fondlari statistikasi.
16. Qishloq xo'jaligi mehnat resurslari statistikasi
17. Dehqonchilik statistikasi
18. Chorvachilik statistikasi
19. Fermer xo'jaliklari statistikasi

VII. GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanirshi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Arifmetik o'rtacha	Arithmetic mean	Арифметическая средняя	shunday ilmiy qoidaga asoslangan o'rtachaga aytiladiki, u bilan belgining ayrim qiymatlarini almashtirilsa, ularning umumiy yig'indisi o'zgarimasligi va to'plam birliklari soniga nisbatan proporsional taqsimlanishi zarur
Asosiy fondlar	fixed assets	основные фонды	mamlakat milliy boyligining muhim qismi. Ular ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta foydalaniladigan va o'z qiymatini tayyor mahsulotga asta-sekin o'tkaza boradigan aktivlar hisoblanadi
Aholini takror paydo bo'lishi netto koeffitsenti	Re-formation of the net rates of population	Коеффитсент нетто воспроизводство населения	butun umri mobaynida bir ayol tuqqan bolalarining onasi tuqqan yoshigacha yashaganlarning o'rtacha soni.
Aylanma mablag'lar	Current assets	Оборотные средства	xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil etuvchi mablag'lar.
Aholini ijtimoiy muhofaza qilish	Social Protection	Социальная защита	davlat tomonidan aholiga barcha hayot kechirish shart-sharoitlarini yaratish uchun maqsadli yunaltirilgan kafolatlar tizimi.
Aholining real daromadlari	The real incomes of the population	Реальные доходы населения	narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya'ni, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvati.
Bandlik	employment	занятость	mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.
Bankrot	bankrupt	банкрот	xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul

			majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la xajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.
Barqarorlik	stability	стабильность	hodisa va jarayonlarning amal qilishi hamda rivojlanishdagi o'ziga xos muayyanlik holati
Bevosita investitsiya	direct investment	устойчивость прямых инвестиций	kapital qo'yilmalarni investor tomonidan to'g'ridan-to'g'ri investitsion ob'ektlarga yo'naltirilishi nazarda tutiladi.
Biznes	Business	Бизнес	foйда olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi
Bilvosita investitsiya	indirect investment	косвенное инвестирование	vositachi moliyaviy tashkilotlar orqali investorlar tomonidan kapital qo'yilmalarning qo'yilishi tarzida ifodalanadi.
Bozor kon'yunkturasi	market conditions	рыночные условия	muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo'lib, quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o'zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.
Byudjet defitsiti	budget deficit	бюджетный дефицит	byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik
Global moliyaviy-iqtisodiy bozor	Global financial market	Глобальный финансовый рынок	jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.
Davlat byudjeti	State budget	госбюджет	davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.
Davlat investitsiyasi	State investments	Государственные инвестиции	davlat byudjeti va byudjetdan tashqari davlat fondlari hamda davlat korxonalarini tomonidan kapitallar qo'yilishini ifodalaydi.
Daromadning ichki me'yori	Standards of internal revenue	Стандарты внутреннего дохода	investitsiyadan pul oqimini, kelajakdagi qiymatini diskont stavkasi bilan belgilangan

			investitsion mablag'larni hozirgi qiymatiga keltirilgan aniq bir investitsion loyihaning daromadlilik darajasini ifodalaydi
Daromad solig'i	income tax	подходный налог	fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov (soliq).
Daromad solig'i stavkalari	Income tax rates	Ставки налога на прибыль	Aholi daromadlaridan tabaqalashtirilgan holda olinadigan soliqlarning foizlardagi darajalari.
Diversifikatsiya	the diversification	диверсификация	(lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohasini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.
Diversifikatsiya strategiyasi	diversification strategy	стратегия диверсификации	korxonalar faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir.
Dividend	the dividend	дивиденд	aksionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalari to'lanadigan qismi bo'lib, u aksionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi.
Diskontlangan qoplash me'yori	To cover the discounted rate	Для того, чтобы покрыть скидку	investitsion loyihaning amalga oshirilishidan boshlab, iqtisodiy ijobiy samaraga erishgunga bo'lgan qisqa vaqt intervali
Jahon banki	The World Bank	Всемирный банк	1944 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan
<u>Institutsion birliklar</u>	institutional units	институциональные единицы	aktivlarga egalik qilish, majburiyatlar olish, iqtisodiy faoliyat yuritish va boshqa birliklar bilan operatsiyalar o'tkazish huquqiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar.
<u>Iste'mol</u>	consumption	потребление	ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholini

			iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni
<u>Iste'mol baholari indeksi</u>	Consumer price index	Индекс потребительских цен	iste'mol savatiga kiritilgan tovar va xizmatlar bahosining u yoki bu davrdagi o'rtacha o'zgarishini ifodalovchi indeks. U odatda Laspeyres formulasi bo'yicha aniqlanadi.
<u>Ish kuchiga sarflangan xarajatlar</u>	Labor expenses	расходы на рабочую силу	ish beruvchilar tomonidan ish kuchini yollash va uni asrash bilan bog'liq bo'lgan harajatlar yig'indisi
<u>Ishsizlik darajasi</u>	The unemployment rate	Уровень безработисы	ishsizlar sonini iqtisodiy faol aholi soniga nisbati. 16 va undan yuqori yoshdagilar, lekin ishga ega bo'lmaganlar, faol ish qidirayotganlar, ishni boshlashga tayyor turganlar ishsizlar deb ataladi
<u>Ish haqi</u>	Remuneration	зарплата	joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.
<u>Ishlab chiqarish</u>	production	производство	ma'lum davrda alohida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tarmoqlar va iqtisodiy sektorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mol va xizmatlar qiymati
<u>Ishchi kuchi bozori</u>	Labor market	рынок труда	– ish kuchining egasi va ish beruvchilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi.
<u>Iqtisodiy faol aholi</u>	The economically active population	Численность экономически активного населения	o'z ish kuchini tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun taqdim etgan doimiy aholining bir qismi (ayollar, erkaklar) bo'lib, ular band aholi va ishsizlarga bo'linadilar.
<u>Iqtisodiyot aktivlari</u>	The assets of the economy	активы экономики	ob'ektlar bo'lib, ularga institutsion birliklar yakka holda yoki jamoa bo'lib egalik qilish huquqiga ega bo'ladilar. Ularning egalari ma'lum vaqt davomida ularga egalik qilishdan yoki ulardan foydalanishdan iqtisodiy naf ko'radilar. Iqtisodiy

			aktivlar-moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarga bo'linadi
<u>Iqtisodiyotning real sektori</u>	The real sector of the economy	Реальный сектор экономики	iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi
<u>Iqtisodiy nochor korxonalar</u>	Insolvent enterprises	Несостоятельных предприятий	muayyan miqdorda kapital yo'qotish, ishlab chiqarish maydonlarining qisqarishi, ishsizlar sonining ortishi, raqobatbardosh bo'lmagan maxsulot ishlab chiqaradigan va buning uchun katta miqdorda materiallar, xom ashyo, yonilg'i, mehnat resurslari sarflaydigan qoloq, samarasiz korxonalar
Yo'riqnomalar	instructions	инструкция	(instruksiya) deb kuzatish dasturida ko'zlangan belgilarni bir xil talqin etishva tushunishni ta'minlaydigan ko'rsatmalar majmuasiga aytiladi.
Kuzatish ob'ekti	monitoring facility	объект наблюдения	bu o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlar, ya'ni korxonalar va tashkilotlar, xo'jaliklar, kishilar, oilalar, uy xo'jaliklari, va hokazolarni ularning faoliyati jihatidan qaralgan to'plam
Kombinatsion jadval	combinational table	комбинатсионная таблица	ega qismida ob'ektlarni ikkita va undan ortiq belgilari asosida guruhlash natijalarini aks ettiradigan jadvaldir
Moda	mode	мода	to'plamda eng ko'p uchraydigan belgi qiymatiga ataladi. Diskret qatorlarda u eng ko'p sohiblar (variantalar) soniga ega bo'lgan varianta qiymati bilan belgilanadi.
Mediana	median	медиана	to'plamni teng ikkiga bo'luvchi belgining qiymati tushuniladi
<u>Milliy boylik</u>	national wealth	национальное богатство	kishilik avlodi mehnati tufayli va foydalanish mumkin bo'lgan tabiiy boyliklar yig'indisidan tashkil topadi. Mehnat natijasida paydo bo'lgan ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlaridan iborat noz-ne'matlar yig'indisi milliy mulk deb ataladi.

Milliy standart	national standard	национальный стандарт	muayyan mamlakat miqyosida, xalqaro standart esa-butun jahon yoki mamlakatlar birlashmasi miqyosida hodisalarni tasniflash, ko'rsatkichlarni tuzish va hisoblash, ma'lumotlarni qayd qilishda qo'llanadigan umumiy talab, tartib va kontsepsiyalar majmuasidir.
Mutlaq ko'rsatkichlar	Absolut index	Абсолютные показатели	o'rganilayotgan hodisalar va ularning belgilarini bir xilligini, monandligini, o'xshashligini ifodalaydi. Mutlaq miqdorlar hodisalar yoki belgilarning ko'lami, soni, hajmi, darajasi, makon va zamonda taqsimlanish sonini ifodalaydi
Masshtab	scale	масштаб	ko'rsatkichlarni tekislikdagi tasviriy nisbatlarga aylantiruvchi shartli me'yordir
<u>Nominal ish haqi</u>	Nominal wage	Номинальная заработная плата	pul formadagi ish haqi, faqat pul hajmini ifodalaydi, uning sotib olish qobiliyatini hisobga olmaydi
Ommaviy hodisa	mass phenomena	массовые явления	biror ob'ektlar to'plamida sodir bo'lgan voqea, harakat natijasi.
Ommaviy jarayon	mass events	массовые события	bu ob'ektlar to'plamida sodir bo'lgan voqealar oqimi va uning xarakteri, ularning rivojlanish darajalari, to'plama hodisalar kechishidagi (harakatidagi) o'zgarishlar
<u>Rezident</u>	resident	резидент	nisbatan uzoq vaqt davomida hududida iqtisodiy qiziqishi bo'lgan institutsion birliklar (korxonalar, tashkilotlar, uy xo'jaliklari va h.k.lar).
Statistika	Statistics	Статистика	ommaviy hodisa va jarayonlarni aniq vaqt va zamonda sifat hamda miqdordan ajralmagan holda o'rganadi
Statistika uslubi	Statistical method	Статистический метод	ommaviy hodisa va jarayonlarni o'rganishda, namoyon bo'ladigan qonuniyatlarni oydinlashtirishda ishlatiladigan o'ziga xos uslub, ya'ni statistika nazariyasi va amaliyotida qo'llanadigan yo'llar, usullar, vositalar majmuasi

Statistik tadqiqot	Statistical investigation	Статистическое исследование	ikkita bosqich va bir necha fazalardan tashkil topadi va ularda o'ziga xos usullar qo'llanadi
Statistik ko'rsatkichlar	Statistic indexes	Статистические показатели	statistical method ma'lum makon va zamon sharoitida ommaviy hodisa va jarayonlarning holatini, rivojlanishini, tuzilishini, o'zaro bog'lanishlarini ifodalovchi me'yorlar yuritiladi
Tasniflash	Classification	Классификация	o'rganilayotgan hodisalarni tartiblash maqsadida ularning muhim belgilariga qarab guruhlarga, turkumlarga va hokazolarga ajratishdir.
Taqqoslash	Compare	Сравнение	turli ko'rsatkichlarni ayirma yoki bo'lish yo'li bilan o'zaro solishtirishdir
Faset	bezel	Фасет	har bir tasnif birliklarini nomma-nom yozib chiqish ro'yxati
Senz	qualification	Ценз	kuzatish obektini aniqlovchi me'yor, belgilar to'plamidir

VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Me‘yoriy-huquqiy xujjatlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //”Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-SON farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakteristik strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘tgan yil 11 fevraldagi (PP-2298) “o‘tgan-2019 yillarda tayyor mahsulotlar butlovchi qismlar va materiallarni mahalliyashtirish Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz 11.02.o‘tgan
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport qiluvchi korxonalarni rag‘batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. PF-2613-sonli Farmoni. www.lex.uz 11.04.o‘tgan
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jizzax” maxsus industrial zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni / Xalq so‘zi, hisobot yil, 19 mart
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Angren” maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida”gi Farmoni. Xalq so‘zi, 2012 yil, 14 aprel
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha 2011 – hisobot yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. 2011 yil 29 iyul
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-o‘tgan yillarda O‘zbekiston Respublikasida sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Qarori. Xalq so‘zi, 2010 yil 15 dekabr.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2010 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to‘g‘risida”gi Qarori. 2010 yil, 23 mart
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar Dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni. Xalq so‘zi, 2008 yil, 2 dekabr
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. Xalq so‘zi, 2008 yil, 19 noyabr

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrda «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni. Xalq so‘zi, 2008 yil, 4 dekabr

II. Maxsus adabiyotlar.

1. James McClave, Terry Sincich Statistics. Textbook. USA. hisobot year.
2. Robert Jonsson Exercises in Statistical Inference with detailed solutions 1 st edition 2014 year.
3. Juha M. Alho and Bruce D. Spencer Statistical Demography and Forecasting 2005
4. Nabiyev X., Ayubjonov A.H., Sayfullaev S.N. Iqtisodiy statistika. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 324 bet.
5. Soatov N.M., X.Nabiev N.M., Nabiev D., Tillaxo‘jaeva G.N. Statistika. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 548 bet.
6. Statistika. Uchebnik. /Pod red. I.I. Yeliseevoy. – M.: Prospekt, hisobot. – 448 str.
7. Xarchenko N.M. Ekonomicheskaya statistika. Uchebnik. – M.: Dashkov i K, o‘tgan. – 368 s.
8. Yu.N. Ivanova. Ekonomicheskaya statistika. Uchebnik. / Pod red.– M.: INFRA-M, o‘tgan. – 736 str.
9. Soatov N. Statistika. Darslik. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2003. – 743 bet.
10. Daris Singpurwalla A Handbook of statistics: an Overview of Statistical Methods 1 st edition. hisobot year.
11. Ayubjonov A.H., Mamatqulov B.X., Sayfullaev S.N. “Statistika” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, o‘tgan. – 180 bet.
12. Ulitina Ye.V. i dr. Statistika. Uchebnoe posobie. – M.: Market DS, o‘tgan. – 312 str
13. V.N. Salina. Statistika. Praktikum. Uchebnoe posobie. – M.: KNORUS, 2014. – 496 str
14. Ayubjonov A.H. “Statistika” fanidan o‘quv uslubiy qo‘llanma. – T.: TDIU, hisobot. – 145 bet
15. Teoriya statistiki. Uchebnik. Pod red. R.A.Shmoylovoy. – M.: Finansy i statistika, o‘tgan. – 655 str.

Internet saytlari

16. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
17. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
18. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
19. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

20. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

21. www.mineconomu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi sayti.

22. www.mehnat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining sayti.